


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI



N.Z. TASIMOV

MAKAROV PISTOLETI

Oquv qollanma



TOSHKENT - 2024

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI



N.Z.TASIMOV

MAKAROV PISTOLETI

O'quv qo'llanma

TOSHKENT–2024

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish institutining
Ilmiy kengashida ma’qullangan*

***Mas’ul muharrir:
polkovnik O.T. Axmedov***

Taqrizchilar:

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi boshlig‘ining saf qismi bo‘yicha
o‘rinbosari dosent, podpolkovnik

D.A. Alautdinov

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti
Jangovar va jismoniy tayyorgarlik sikli katta o‘qituvchisi, podpolkovnik,
p.f.f.d. (PhD)
X.M. Akrambayev

T – 23

Makarov pistoleti: O‘quv qo‘llanma / Tasimov N.Z. – T.:
O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti.
2024 – 84 bet.

Ushbu o‘quv qo‘llanma o‘q otish tayyorgarligi kursining namunaviy dasturi talablariga mos ravishda Ichki ishlar vazirligi ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari hamda amaliyat xodimlari uchun tayyorlangan. O‘quv qo‘llanmada Makarov pistoleti bo‘yicha asosiy ma’lumotlar, xususan: makarov pistoletining taktik-texnik tavsifi, tuzilishi, qo‘llanilishi, jangovar xususiyatlari hamda ularga xizmat ko‘rsatish masalalari batafsil yoritilgan.

Qo‘llanma Ichki ishlar vazirligi ta’lim muassasalari hamda harbiy bilim yurtlarining professor-o‘qituvchilari, kursant (tinglovchi)lari va Malaka oshirish instituti tinglovchilari shuningdek, amaliyat xodimlariga mo‘ljallangan.

UDK 623.433 (0,75.9)(575.1)

© O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti, 2024

SO‘Z BOSHI

“Ichki ishlar organlarini aholiga o‘z vaqtida va sifatli yordam ko‘rsatadigan, har bir xodimi tomonidan «Xalq manfaatlariga xizmat qilish»ni o‘z xizmat burchi deb biladigan ijtimoiy yo‘naltirilgan professional tuzilmaga aylantirish kerak”

Sh.M. MIRZIYOYEV

Yangi O‘zbekistonning 2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ettita ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalariga muvofiq, shuningdek, ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ishonchli himoya qilinishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari tizimini isloh qilishning eng muhim yo‘nalishlardan biri deb belgilanganligi bejiz emas.

Barchamizga ma’lumki, ichki ishlar organlari tomonidan ajratiladigan kunlik naryadlar xizmatni o‘qotar qurollar bilan amalga oshiriladi. Ichki ishlar organi xodimi o‘z xizmat faoliyatini amalga oshirishda jamoat xavfsizligini ta’minlash, jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash kabi vazifalarni samarali bajarish uchun “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida” gi Qonunda ayrim huquqlar belgilab berilgan. Ushbu huquqlar o‘ziga xos vazifalarni bajarish bilan bir qatorda, o‘qotar qurolni qo‘llash huquqi alohida ahamiyatda ega. Xizmat majburiyati esa Ichki ishlar organlari xodimlari o‘qotar qurollardan mohirona va samarali foydalanishni, quroldan foydalangan vaqtida xavfsizlik choralariga qat’iy rioya qilishni, qisqa muddatlarda nishonni aniq zabit etishni va quronga bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishni talab etadi.

Ushbu talablarga rioya qilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat olib boradigan asosiy quroli Makarov pistoleti ekanligini ta’kidlaydigan bo‘lsak, xodim tomonidan mazkur pistoletga tegishli

bo‘lgan barcha nazariy ilm hamda amaliy ko‘nikmalarni puxta egallashni talab etadi. Makarov pistoleti ko‘pgina davlatlar ichki ishlar organlari qurollanishining asosiy quroli sifatida alohida o‘rin egallagan. Makarov pistoleti o‘zining ishonchligi, qulayligi va foydalanish uchun oddiy tuzilishga ega bo‘lganligi hamda yuqori aniqlikni namoyon qilganligi munosabati bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlarini qurollantirish uchun qulay qurol hisoblanadi.

Xodimlar tomonidan Makarov pistoleti bilan bog‘liq ilmlarning mukammal egallanishi xizmat faoliyatida hamda nostandard vaziyatlarda professionallik sifatlarini amalda ko‘rsata olgandagina namoyon bo‘ladi.

Mazkur qo‘llanmada Makarov pistoletining tuzilishi, jangovar xususiyatlari, noto‘liq va to‘liq qismlarga ajratish va qayta yig‘ish tartibi, pistoletning qism va mexanizmlari, patron va anjomlarining tuzilishi hamda vazifalari, pistoletdan o‘q otish mashqlarini bajarish, shuningdek, o‘q otish vaqtida nishonni zabit etish uchun to‘sinqlik qiluvchi omillar xususida so‘z yuritilgan.

Ushbu qo‘llanma barcha toifadagi ichki ishlar organlari xodimlari, Ichki ishlar vazirligi ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilar hamda amaliyot xodimlari uchun tavsiya etiladi.

I-BOB. MAKAROV PISTOLETINING TARIXI HAMDA NOODATIY QURILMALAR

1-§. MAKAROV PISTOLETINING TARIXI

Makarov pistoleti 1951 yilda qurollanishga qabul qilingan. 73 yillik tarixi davomida pistoletga ko‘plab takomillashtirish va o‘zgartirishlar kiritildi. O‘zgartirishdan tashqari, turli yillarda pistolet uchun turli xil ko‘rinishdagi qurilmalar ishlab chiqarilgan.



2-§. MAKAROV PISTOLETINING NOODATIY QURILMALARI


**Makarov pistoleti uchun 80 ta patron joylanadigan
“barabanli” magazini**

Makarov pistoleti 8 ta patron joylashtiriladigan standart magaziniga ega, shuningdek, sig‘imi 12 ta patron joylashtiriladigan magazin ham mavjud. Agar siz o‘q otish bo‘yicha yaxshi ko‘nikmaga ega bo‘lmasangiz va sizning shioringiz “aniq otgandan ko‘ra, ko‘proq otgan maql” bo‘lsa unda siz uchun 80 ta patron sig‘imiga ega bo‘lan barabanli magazin mavjud.

Shuni ta'kidlash joizki “barabanli” magazin, na politsiya tizimida, na qurolli kuchlarda o‘zini oqlamaganligi sababli bizgacha etib kelmagan. “Barabanli” magazinni amalda qo‘llashda juda ko‘p noqulayliklar mavjud bo‘lgan, bular og‘irligi va xajmi kattaligi, bundan tashqari o‘qlash vaqtida noqulayliklar sabab bo‘lgan. Umuman olganda pistolet bilan xizmat o‘tash vaqtida ko‘p hajmda o‘q-dori sizga asqotishini tasavvur qilish qiyin.



Makarov pistoleti “barabanli” magazini bilan



Makarov pistoleti “barabanli” magazini bilan

Makarov pistoleti uchun adapter

Makarov pistoleti uchun maxsus adapter ishlab chiqilgan. Adapter yordamida pistoletini - pistolet-pulemyotga aylantirishga ham urinib ko‘rishgan. Qurolsoz konstruktorlarning taxminiga ko‘ra – pistolet adapter ichiga joylashtiriladi hamda 50 metrdan uzoq masofadagi nishonlarni aniqlik bilan zabit etish uchun mo‘ljallangan.



Makarov pistoleti uchun ishlab chiqilgan adapter

Makarov pistoleti uchun Boyarkin universal kranshteyni

Boyarkin Vitaliy Vitalevich tomonidan 2009 yilda Makarov pistoleti uchun universal kranshteyn yaratishni qaror qilib uni yasashga muvaffaq bo‘lgan.



Makarov pistoleti uchun universal kranshteyn

Muallif fikriga ko‘ra – kranshteyn Makarov pistoletning ramkasiga biriktiriladi hamda bir qator qurilmalarni biriktirish imkoniyatini yaratadi. Kranshteyn yordamida pistoletga ovoz so‘ndirgich, fonar, qo‘ndoq mo‘jalga olish moslamalarini pistolet konstruksiyasiga o‘zgartirish kiritmasdan o‘rnatish mumkin.


Shuningdek, kranshteynga o‘rnatilgan video-mo‘jalga olish moslamasining namunaviy portatipi yaratilgan.



Kranshteynga o‘rnatilgan video-mo‘jalga olish moslamasi



Kranshteynga o‘rnatilgan video-mo‘jalga olish moslamasi



Kranshteynga o‘rnatilgan ovoz so‘ndirgich va qo‘ndoq

II-BOB. MAKAROV PISTOLETINING TUZILISHI, JANGOVAR XUSUSIYATLARI

1-§. MAKAROV PISTOLETI (PM)



**Николай Фёдорович
МАКАРОВ**
(09.05.1914-13.05.1983)

9 mm.li Makarov pistoleti 1948 yil Nikolay Fyodorovich Makarov tomonidan ixtiro qilingan bo‘lib 1951 yil sobiq SSSRning katta ofiserlar tarkibini qurollantirish maqsadida pistolet qurollanishga qabul qilingan.

9 mm li Makarov pistoleti shaxsiy tarkibning xujum va ximoya quroli bo‘lib, dushmanni yaqin masofalarda yo‘q qilish uchun mo‘ljallangan.

Pistoletdan 50 metrgacha masofada mo‘jalga olib otish ancha yuqori samara beradi.

Makarov pistoletining umumiy ko‘rinishi.



2-§. MAKAROV PISTOLETINING JANGOVAR XUSUSIYATLARI

1-jadval

T/r	Taktik-texnik tavsifi	Asosiy ko'rsatkichlari
1.	Kalibr	9 mm
2.	O'qning boshlang'ich uchish tezligi	315 m/s
3.	Jangovar otish tezligi	30 patron (bir daqiqada)
4.	O'qning jarohatlash masofasi	350 m
5.	Mo'ljalga olib otish masofasi	50 m
6.	Pistoletni patronsiz og'irligi	730 gr
7.	Pistoletni 8 ta patron bilan og'irligi	810 gr
8.	Pistoletni uzunligi	161 mm
9.	Stvolning uzunligi	93 mm
10.	Pistoletni balandligi	126,75 mm
11.	Pistoletning eni	30,5 mm
12.	Narezlar soni	4 ta.
13.	Magazin sig'imi	8 patron
14.	Patron	9x18
15.	Patron og'irligi	10 gr
16.	Porox zaryadining og'irligi	0,25 gr

3-§. MAKAROV PISTOLETI FOYDALANILADIGAN

PATRONLARNING JANGOVAR XUSUSIYATLARI


9 mm li pistolet patroni gilza, piston, poroxli zaryad va o'qdan iborat (1-rasm).

Patron turlari



1-rasm. Patronning tuzilishi.

Gilza poroxli zaryadni joylashtirish va patronning hamma qismlarini birlashtirish uchun xizmat qiladi. U poroxli zaryadni va pistonni tashqi ta'sirlardan himoya qiladi va otish vaqtida stvol kanalidan patrondon orqali gazlarning orqaga harakatlanish yo'lini yopib turadi (2-rasm).



2-rasm. Patron tuzilishi

- 1-gilza;
- 2-piston;
- 3-porox zaryadi;
- 4-o'q qo'rg'oshini;
- 5-po'lat va mis koplamasi;
- 6-po'latdan yasalgan o'zak;
- 7-qo'rg'oshinli qoplama.

Gilza tubida piston uchun uya, pistonni turtkich zarbasidan keyin teshuvchi sandon, piston tarkibi yonganidan keyin, uning alangasi poroxli zaryadga o'tadigan ikkita teshik mavjud. Gilza tubining tashqi qismida uloqtirgich tishchasi (ilgagi) kirishi uchun aylana arikcha bor.

O'q qo'rg'oshin o'zakdan, po'lat va mis koplamidan iborat. O'q gilzaga siqib kiritish orqali o'rnatiladi.

Zaryad tutunsiz piroksilinli poroxdan iborat.

Piston poroxli zaryadni yondirish uchun xizmat qiladi. Piston latun kalpokchadan, unga zichlab solingan zarbli tarkibdan va zarbli tarkibni berkitib turadigan kalayi koplamadan tashkil topgan.

Turtkich zarba bergenida zarbli tarkib alanga oladi.

Patronlar magazinga bir qator joylanadi. Magazinni o'qlash patronni ko'l bilan joylashtirish orqali bajariladi.

4-§. MAKAROV PISTOLETNING ASOSIY QISM VA MEXANIZMLARI.

Pistoletning asosiy qism va mexanizmlarining tuzilishi hamda vazifalari:

Stvolli asos tushiriluvchi xalqa bilan – o‘qning uchishiga yo‘nalish berish uchun xizmat qiladi;

Zatvor – patrondonga magazindan patronni etkazib berish, otishda stvol kanalini yopish, gilzani ushlab turish (chiqarib olish) va tepkini jangovar holat (vzvod)ga keltirish uchun xizmat qiladi;

Turtgich – pistonni chaqish uchun xizmat qiladi;

Uloqtirgich – qaytargich bilan uchrashguncha gilzani zatvor kosachasida ushlab turish uchun xizmat qiladi;

Saqlagich – piston bilan muomala qilishda xavfsizlikni ta’minlaydi;

Qaytaruvchi prujina – otishdan keyin zatvorni oldingi holatiga qaytarish uchun xizmat qiladi;

Zarbdor - tepki mexanizmi:

Tepki ilgagi – tepki tortqichidan tortib tepkini xarakatga keltirish uchun xizmat qiladi;

Tepki – turtkichga zarba berish uchun xizmat qiladi;

Prujinali sheptalo – tepkini jangovar va saqlagich holat (vzvod)ida ushlab turish uchun xizmat qiladi;

Tepki tyagasi vzvod dastagi bilan – tepkini jangovar holatdan chiqarish va tepki ilgagiga bosilganda tepkini jangovar holatga keltirish uchun xizmat qiladi;

Jangovar prujina – tepkini va tepki tortqichini harakatga keltirish uchun xizmat qiladi;

Zatvor tutqichi – magazinda hamma patronlar ishlatib bo‘linganidan keyin zatvorni orqa holatida ushlab turish uchun xizmat qiladi.

III-BOB. MAKAROV PISTOLETINI NOTO‘LIQ VA TO‘LIQ QISMLARGA AJRATISH VA QAYTA YIG‘ISH

1-§. MAKAROV PISTOLETINI QISMLARGA AJRATISH VA QAYTA YIG‘ISH

Pistoletni qismlarga ajratish noto‘liq yoki to‘liq bo‘lishi mumkin. Pistoletni qismlarga noto‘liqajratish – uni tozalash, moylash va ko‘zdan kechirish uchun, to‘lig‘i esa pistolet juda ifloslanganida, yomg‘ir yoki qor ostida bo‘lganida, yangi moyga o‘tilganida, shuningdek ta’mirlash vaqtida amalga oshiriladi.

Tez-tez to‘liq qismlarga ajratish zararli bo‘lib, pistolet qism va mexanizmlarining eyilishini tezlashtiradi.

Pistoletni qismlarga ajratish va yig‘ishda quyidagi qoidalarga amal qilish zarur:

- qismlarga ajratish va yig‘ish stolda yoki skameykada, dala sharoitida esa toza to‘shamada amalga oshiriladi;
- qism va mexanizmlar ajratilish tartibida joylashtirilishi, ular bilan ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish va keskin zarbargaliga yo‘l qo‘yilmasligi lozim;
- yig‘ilayotganda qismlarning raqamlariga e’tiborni qaratib, boshqa pistoletlar qismlari bilan almashinishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Pistoletni qismlarga noto‘liq ajratish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Dasta asosidan magazinni chiqarish. Pistolet dastasidan o‘ng qo‘l bilan ushlagan holda, chap qo‘lning bosh barmog‘i bilan magazin zashchyolkasi orqaga itariladi (3-rasm), ayni vaqtning o‘zida chap qo‘lning ko‘rsatkich barmog‘i bilan magazin qopqog‘ining o‘sinq qismidan tortilib, magazin dastadan chiqariladi.



3-rasm. Magazinni dasta asosidan chiqarib olish

Saqlagich bayroqchasi pastga bosilib, pistolet saqlagichdan echiladi, chap qo‘l bilan zatvor orqa holatga tortilib, patrondonga qaraladi va unda patron yo‘qligiga ishonch hosil qilingach, o‘ng qo‘l bosh barmog‘i bilan zatvor tutqichi bosilib, zatvor qo‘yib yuboriladi.

2. Zatvorni ramkadan ajratish. Dastani o‘ng qo‘l bilan ushlagan holda, chap qo‘l bilan tushiriluvchi halqasni oldingi qismidan pastga tortilib tushiriladi (4-rasm), uni o‘ngga yoki chapga og‘dirib, shu holda turishi uchun ramkaga tirab qo‘yiladi. Pistoletni bundan keyingi qismlarga ajratish vaqtida halqa o‘ng qo‘l ko‘rsatkich barmog‘i bilan shu holatda tutib turiladi.




4-rasm. Tushiriluvchi halqani tortib tushirish.

Chap qo‘l bilan zatvor orqa chekka holatga tortiladi va orqa qismini biroz ko‘targan holda, uning qaytaruvchi prujina ta’sirida oldinga harakatlanishiga yo‘l qo‘yib beriladi. Zatvor ramkadan ajratilib (5-rasm), tushiriluvchi halqa joyiga tushiriladi.



5-rasm. Zatvorni ramkadan ajratish.

3. Stvoldan qaytaruvchi prujinani echish. O‘ng qo‘l bilan dastadan ushlagan holda, chap qo‘l bilan prujina ta’lim oluvchining o‘ziga qaratib buralib, stvoldan chiqarib olinadi (6-rasm).



6-rasm. Stvoldan qaytaruvchi prujinani echish.



7-rasm. Makarov pistoletining noto‘liq ajratishdan keyingi ko‘rinishi.

Pistoletni qismlarga noto‘liq ajratishdan keyin (7-rasm) yig‘ish ***teskari tartibda amalga oshiriladi***.

1. Stvolga qaytaruvchi prujinani kiydirish. Ramka dastagidan o‘ng qo‘l bilan ushlagan holda, chap qo‘l bilan prujina oxirgi o‘ramasining diametri boshqalarga qaraganda kichikroq bo‘lgan tor qismi bilan stvolga kiydiriladi.

2. Zatvorni ramkaga o‘rnatish. Ramka dastasidan o‘ng qo‘l bilan ushlagan holda, chap qo‘l bilan zatvorni ushlab, unga qaytaruvchi prujinaning bo‘sh tomoni kiritiladi (8-rasm) va stvol oldi qismi zatvor kanali ichidan o‘tadigan va tashqariga chiqadigan qilib zatvor orqaga suriladi (9-rasm). Zatvorning orqa qismi ramkaga shunday qo‘yilishi kerakki, bunda zatvorning uzuna bo‘rtiqlari ramkaning botiqlariga tushishi kerak, buning uchun zatvor ramkaga taqaladi, keyin qo‘yib yuboriladi. Zatvor qaytaruvchi prujinaning ta’sirida kuch bilan oldingi holatga qaytadi. Pistolet saqlagichga qo‘yiladi (bayroqcha tepaga ko‘tariladi).



8-rasm. Qaytaruvchi prujinaning bo‘sh uchini zatvor kanaliga kiritish.



9-rasm. Zatvorni ramkaga biriktirish.

Eslatma. Zatvorni ramkaga birlashtirish uchun pastga tortish va tushiriluvchi halqani tushirish shart emas. Bunda, zatvorni orqaga oxirigacha tortib, orqa tomonini yuqoriga tiralgunicha ko‘tarish zarur. Muhimi, zatvorning oldingi pastki devorchasi zatvorning orqaga harakatini cheklovchi tushiriluvchi halqaning bo‘rtiqiga tiqilmasligi kerak.

3. Magazinni dasta asosiga o‘rnatish. Pistoletni o‘ng qo‘lda ushlagan holda, chap qo‘lning bosh va ko‘rsatkich barmoqlari bilan magazin dastaning pastki darchasi orqali dasta asosiga o‘rnataladi (10-rasm). Bosh barmoq bilan magazin qopqog‘iga bosiladi va bunda zashchyolka (jangovar prujinaning pastki chekkasi) magazin devoridagi bo‘rtiqqa mingashib qolishi kerak; bu holda «shiq» etgan tovush chiqishi kerak. Magazinga kaft bilan urish man etiladi.



10-rasm. Magazinni dasta asosiga o‘rnatish.


Noto‘liqajratishdan keyin pistoletning to‘g‘ri yig‘ilganligini tekshirish. Pistolet saqlagichdan echiladi (bayroqcha pastga tushiriladi). Zatvor orqa holatga

tortilib, qo'yib yuboriladi. Zatvor bir oz oldinga siljiganidan keyin zatvor ushlagichga va dasta asosiga tiralib orqa holatda qolishi kerak. Zatvor tutqichi pastga bosilib, zatvor tushiriladi. Zatvor jangovar prujina bosimi ta'sirida kuch bilan oldingi holatga qaytishi va tepki esa jangovar holatda turishi kerak. Pistolet saqlagichga qo'yiladi (bayroqcha ko'tariladi). Tepki jangovar holatdan chiqib ketishi va bloklanishi kerak.

2-§. MAKAROV PISTOLETNI TO'LIQ QISMLARGA AJRATISH

Pistoletni to'liq qismlarga ajratish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Pistolet noto'liq qismlarga ajratiladi (11 – 19-rasmlar).
2. Sheptalo va zatvor tutqichini ramkadan ajratish. Chap qo'lning bosh barmog'i bilan tepki boshini ushlagan holda va ko'rsatkich barmoq bilan tepki dumiga bosa turib, tepki ohista jangovar holatdan chiqariladi.



11-rasm. Sheptalo prujinasining ilgagini zatvor tutqichidan tushirish.

Tozalagichning bo'rtig'i bilan sheptalo prujinasining ilgagi zatvor tutqichidan tushiriladi (11-rasm). O'ng qo'lning ko'rsatkich va bosh barmog'i bilan sheptalo old tomonga buraladi, bunda sheptalo o'qining o'ng tarafidagi kemtigi, ramkadagi o'q joylashadigan teshikning kemtigi bilan mos kelishi kerak; shundan keyin sheptalo va zatvor tutqichini tepaga ko'tarib ramkadan chiqarib olinadi (12-rasm).



12-rasm. Sheptalo va zatvor tutqichini ramkadan ajratish.

3. Dasta asosidan, jangovar prujina esa ramkadan ajratiladi. Buning uchun tozalagichning otvyortkasi yordamida vint burab bo‘shatiladi va dasta bir oz kuch bilan orqaga surilib, asosidan ajratiladi (13-rasm).



13-rasm. Dastani asosidan ajratish.

Chap qo‘l bosh barmog‘i bilan jangovar prujina dasta asosiga bosilib, uning lo‘kidoni dasta asosi bo‘ylab suriladi hamda jangovar prujina dasta asosining o‘sig‘i (prilivi)dan ajratib olinadi (14-rasm).

Eslatma: Jang paytida, agar qo‘l ostida tozalagich (protirka) bo‘lmasa, vintni zatvor **tutqichi** hamda **zatvor mushkasi** bilan burab chiqarish mumkin;

2. Dastlabki chiqqan pistoletlarda jangovar prujina surgichsiz biriktiriladi.



14-rasm. Jangovar prujinani ramkadan ajratish.

4. Tepkini ramkadan ajratish. Ramkani chap qo‘lda ushlagan holda o‘ng qo‘lning bosh va ko‘rsatkich barmoqlari bilan tepki oldinga buraladi; bunda tepki o‘qidagi kemtik qismi ramkadagi o‘q uyasidagi kemtiklar bilan mos kelishi kerak; shunda tepkini stvol tomonga siljitim chiqarib olinadi (15-rasm).



15-rasm. Tepkini ramkadan ajratish.

5. Ramkadan tepki tyagasiniz vvvod dastagi bilan ajratish. Ramka chap qo‘lga olinadi va o‘ng qo‘l bilan tepki tyagasi orqa qismidan ko‘tariladi (16-rasm), shundan keyin tyaganing sapfasi tepki ilgagi teshigidan chiqarib olinadi.



16-rasm. Ramkadan tepki tyagasini vzvod dastagi bilan ajratish.

6. Tepki ilgagini ramkadan ajratish. Ramkani chap qo‘lda ushlagan holda, xuddi pistoletni qismlarga noto‘liq ajratishdagi kabi, o‘ng qo‘l bilan tushiriluvchi halqa pastga tortilib, ramkaga tirab qo‘yiladi; tepki ilgagini to‘liq oldinga tortgan holda, uning sapfasi uyasidan chiqariladi va tepki ilgagi ramkadan ajratib olinadi. Tushiriluvchi halqa joyiga qaytarib qo‘yiladi.

7. Zatvordan saqlagichni va turtkichni ajratish. Zatvorni chap qo‘lga olib, o‘ng qo‘l bosh barmog‘i bilan saqlagich bayroqchasi tepaga ko‘tariladi; keyin bosh va ko‘rsatkich barmoqlar bilan bayroqcha biroz tortilib, ramkadan bir oz chiqariladi va orqaga buralib, ramka uyasidan chiqarib olinadi (17-rasm).

Zatvor orqa qismini o‘ng qo‘l kaftiga engil urgan holda, turtkich zatvordan chiqarib olinadi.




17-rasm. Zatvordan saqlagichni ajratish.

8. Zatvordan uloqtirgichni ajratish (18-rasm). Zatvorni chap qo‘lga olib, o‘ng qo‘l bilan tozalagich yordamida siuvchi joylashtiriladi va uloqtirgichning orqa qismi ko‘tarilib, uloqtirgich zatvor chuqurchasidan chiqariladi, bunda uloqtirgich keskin sakrab chiqib ketmasligi uchun o‘ng qo‘lning bosh barmog‘i bilan tepasidan ushlab turiladi. Keyin zatvor uyasidan siuvchi uloqtirgich prujinasi bilan chiqarib olinadi.



18-rasm. Zatvordan uloqtirgichni ajratish.


9. Magazinni qismlarga ajratish. Magazinni chap qo‘lga olib, shu qo‘lning bosh va ko‘rsatkich barmoqlari bilan uzatgich prujinasi uzatgichga siqiladi, o‘ng qo‘l bilan esa magazin qopqog‘i o‘sinq qismidan tortib chiqariladi (19-rasm). Keyin magazin korpusidan uzatgich prujinasi va uzatgich chiqarib olinadi.



19-rasm. Magazinni qismlarga ajratish.


To‘liq ajratishdan keyin pistoletni yig‘ish *teskari tartibda amalga oshiriladi:*

1. Magazinni yig‘ish. Magazin korpusi chap qo‘lda ushlanadi, bunda magazin zashchyolkasi uchun bo‘rtiq oldinda va tepada bo‘lishi kerak; o‘ng qo‘l bilan magazin korpusiga uzatgich solinadi. Keyin uzatgich prujinasining qayrilmagan qismi pastga qilinib magazin korpusiga solinadi va chap qo‘lning bosh barmog‘i bilan prujinani bosib turib (20-rasm), o‘ng qo‘l bilan qopqoq magazinning qayrilgan chekkasiga surib kiydiriladi, bunda prujinaning qayrilgan chekkasi qopqoq teshigiga kirib qolishi kerak.




20-rasm. Magazinni yig‘ish.

2. Uloqtirgichni zatvorga o‘rnatish (21-rasm). Zatvorning old qismi o‘ziga qaratgan holda ushlanib, o‘ng qo‘l bilan zatvor uyasiga uloqtirgich prujinasi siquvchisi bilan qo‘yiladi. Uloqtirgich ilgichi bilan zatvor kosachasiga qo‘yiladi, bunda uning tovonchasi tepada bo‘ladi. Tozalagich bilan siquvchi joylashtiriladi va bir vaqtning o‘zida uloqtirgich chap qo‘lning bosh barmog‘i bilan siquvchiga va pastga bosiladi. Bunda siquvchining boshchasi zatvor tovonchasiga o‘rnashib qolishi kerak.



21-rasm. Uloqtirgichni zatvorga o‘rnatish.

3. Turkich va saqlagichni zatvorga o‘rnatish. Zatvorning orqa qismini o‘ziga qaratgan holda, chap qo‘lda ushlanadi va turkichning qirqimi saqlagich uyasi tomonga qaratilib, zatvor kanaliga solinadi. O‘ng qo‘lning bosh va ko‘rsatkich barmog‘i bilan saqlagich uyaga kiritilib (22-rasm), keyin tepaga va oldinga buraladi.



22-rasm. Saqlagichni zatvorga o‘rnatish.

4. Tepki ilgagini ramkaga o‘rnatish. Ramkani o‘ng qo‘lda ushlab turib, tushiriluvchi halqa pastga tortiladi va pistoletni noto‘liq qismlarga ajratgandagi kabi, ramkaga tirab qo‘yiladi. Tepki ilgagining boshi ramka ustunchasining darchasidan kiritilib, sapfasi ramkaning sapfa uyasiga joylashtiriladi; tushiriluvchi halqa joyiga qaytariladi.



23-rasm. Tepki ilgagini vzvod dastagi bilan ramkaga o‘rnatish.

5. Tepki tyagasi vzvod dastagi bilan ramkaga o‘rnatish. Ramkani chap qo‘lga olib, tepki ilgagi orqaga bosiladi va tepki tyagasining sapfasi tepki ilgagining teshigiga kiritiladi (23-rasm) va tyaganing orqa chekkasi dasta asosining orqa devoriga tushiriladi.

6. Tepkini ramkaga o‘rnatish. Chap qo‘l bilan ramkani dasta asosidan ushlagan holda, tepki ilgagi oldingi holatga surilib, o‘ng qo‘l bilan tepki boshchasini stvol tomon qaratgan holda, uning sapfalari ramkadagi sapfa uyalariga kiritiladi (24-rasm) va tepki orqaga tortib qo‘yiladi.



24-rasm. Tepkini ramkaga o‘rnatish.

7. Jangovar prujinani ramkaga va dastani dasta asosiga o‘rnatish. Ramka chap qo‘lga olinadi; tepki ilgagi oldinga surilib, vzvod dastagi esa yuqoriga ko‘tarilib, o‘ng qo‘l bilan jangovar prujina kurakchalari ramka darchasidan kiritiladi va prujinaning o‘zi teshigi bilan dasta asosidagi aylana o‘sinqqa (prilivga) kiydirilib ushlanadi, bunda jangovar prujinaning keng kurakchasi tepkining chuqurchasiga, tor kurakchasi esa vzvod dastagi tovonchasiga erkin holda joylashishi kerak. Jangovar prujinaning to‘g‘ri joylashtirilganligi tekshirib ko‘riladi, buning uchun tepki ilgagiga bir necha marta engil bosiladi. Agar engil bosishda tepki orqaga harakatlansa, jangovar prujina to‘g‘ri o‘rnatilgan bo‘ladi.

Keyin jangovar prujinaning holati o‘zgartirilmasdan turib zadvijka bilan mahkamlanadi (25, 26-rasmlar); dasta kiydirilib, vint oxirigacha burab qotiriladi.



25-rasm. Jangovar prujinani ramkaga o‘rnatish.



26-rasm. Jangovar prujinani surma qisqich bilan qotirish.

8. Zatvor ushlagich va sheptaloni ramkaga o‘rnatish. Ramkani chap qo‘lga olib, o‘ng qo‘l bilan zatvor ushlagich ramka qirqimiga qo‘yiladi (27-rasm); sheptaloning o‘ng tomonidagi sapfasining kemtigi oldinga qaratib ushlanadi; keyin zatvor tutqichining orqa qismini biroz ko‘tarib, uning teshigiga sheptaloning prujinali chap tarafidagi sapfasi kiritiladi va sheptaloning sapfalari ramkadagi uyalariga kiritib o‘rnatiladi. Tozalagichning uchi bilan sheptalo prujinasining erkin uchi ko‘tarilib, zatvor tutqichining elkasiga kiydiriladi.

Pistolet yig‘ilganidan keyin qism va mexanizmlarning to‘g‘ri ishlashi tekshiriladi.



27-rasm. Zatvor ushlagich va sheptaloni ramkaga o‘rnatish.

3-§. MAKAROV PISTOLETINI TOZALASH VA MOYLASH

Pistolet doimo toza va soz holatda bo‘lishi kerak. Bunga o‘z vaqtida va to‘g‘ri tozalash hamda moylash, u bilan ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish va to‘g‘ri saqlash orqali erishiladi.

Pistoletni tozalash quyidagi vaqtarda amalga oshiriladi:

- jangovar vaziyatlarda, manyovrlarda va uzoq dala o‘quv mashqlarida – har kuni jang to‘xtagan vaqtida yoki mashg‘ulotlar oralig‘idagi tanaffuslarda;
- o‘q otishsiz mashqlar, xizmatdan so‘ng va dala mashg‘ulotlaridan keyin – mashq, xizmat va mashg‘ulotlar tugashi bilanoq;
- otishdan keyin – o‘q otish tugashi bilan darhol stvol kanali va patrondon tozalanadi va moylanadi; pistoletni to‘liq tozalash otishdan qaytib kelinganidan keyin amalga oshiriladi; keyingi 3–4 kun mobaynida pistoletni tozalash har kuni takrorlanadi;
- agar pistolet ishlatilmayotgan bo‘lsa, kamida har etti kunda bir marta tozalanishi kerak.

Moy faqat yaxshilab tozalangan va quruq yuzaga namlik ta’sir etib ulgurmasidan zudlik bilan surtiladi.

Pistoletni tozalash va moylash ofiserlar tomonidan mustaqil ravishda bajariladi.

Pistoletni artish, tozalash va moylash uchun quyidagilar qo‘llaniladi:

- suyuq miltiq moyi – havo harorati + 5 dan – 50°C gacha bo‘lganida pistoletni tozalash hamda uning qism va mexanizmlarini moylash uchun;
- miltiq moyi – pistolet stvolining kanali, qism va mexanizmlarini tozalagandan keyin ularni moylash uchun ishlatiladi, bu moy +5°C va undan yuqori haroratda ishlatiladi;
- RCHS eritmasi (stvollarini tozalash eritmasi) – pistoletning porox gazlari ta’sir etgan stvollarining kanallari va pistoletning boshqa qismlarini tozalash uchun;
- latta yoki KV-22 qog‘oz – pistoletni artish, tozalash va moylash uchun;
- kanop losi, faqat stvol kanalini tozalash uchun.

Dala sharoitida pistolet faqat suyuq miltiq moyi bilan tozalanadi.

Pistoletni *tozalash* quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- 1) artish va moylash materiallari tayyorlanadi;
- 2) anjomlar ko‘zdan kechiriladi va foydalanish uchun tayyorlanadi;
- 3) pistolet qismlarga ajratiladi;
- 4) stvol kanali tozalanadi. Buning uchun tozalagichning uch qismidagi teshigidan kanop tolasi yoki latta o‘tkaziladi; kanop tolasining qalinligi shunday bo‘lishi kerakki, kanop tolasi o‘tkazilgan tozalagich qo‘l bilan bosilganida stvol kanaliga kiradigan bo‘lishi lozim. Kanop tolasiga suyuq moy shimdiriladi. Tozalagich stvol kanalining og‘zidan kiritiladi. Pistolet ramkasi stol ustiga yotqizib qo‘yiladi, uni chap qo‘l bilan ushlab turgan holda o‘ng qo‘l bilan tozalagich butun stvol kanali bo‘ylab bir necha marta oldinga va orqaga harakatlantiriladi. Kanop tolasi yangilanib, tozalash takrorlanadi. Tozalagich yaxshilab artiladi. Stvol kanali avval toza kanop tolasi, so‘ngra toza va quruq latta bilan quritib artiladi. Latta ko‘zdan kechiriladi; agar lattada qurum yoki zang izlari bo‘lsa, stvol kanali yana suyuq moy shimdirilgan kanop tolasi, so‘ngra toza va quruq latta bilan artiladi. Stvol kanalini tozalash undan chiqarilgan latta toza bo‘lmaqunicha davom ettiriladi. Patrondon ham shu usulda tozalanadi. Patrondon faqat o‘q solinadigan qismi tomonidan patrondonning o‘yiq joyiga tiralgan kanop (latta)li tozalagichni aylantirib tozalash zarur;
- 5) pistolet ramkasi va tushiriluvchi halqasi bilan birga tozalash. Qismlari kir va namdan toza bo‘lmaqunicha latta bilan quritib artiladi. Zang suyuq miltiq moyi shimdirilgan kanop tolasi yoki latta bilan tozalanadi;
- 6) zatvor, qaytaruvchi prujina, zatvor tutqichi va zarbdor-tepki mexanizmning qismlarini tozalash. Agar tozalash otishdan keyin amalga oshirilayotgan bo‘lsa, zatvor kosachasi suyuq miltiq moyi yoki RCHS eritmasi shimdirilgan kanop tolasi yoki latta bilan qurumdan xalos bo‘lmaq qadar tozalanadi. Qismlar tozalanganidan keyin quritib artiladi. Agar pistoletdan o‘q otilmagan va zatvor kosachasida qurum va zang bo‘lmasa, zatvor kosachasi quruq latta bilan artiladi;

7) dasta quruq latta yoki kanop bilan artiladi;

8) magazinni tozalash. Magazin xizmatdan so‘ng va mashg‘ulotlardan keyin yig‘ilgan holda, o‘q otishdan keyin hamda yomg‘irda qolganida yoki kir bo‘lib ketganida qismlarga ajratilgan holda tozalanadi. Xizmatdan so‘ng va mashg‘ulotdan keyin kir va namlik ketgunicha quruq latta bilan artiladi. Otishdan keyin esa uzatgichdagi qurum suyuq miltiq moyi yoki RCHS eritmasi shimdirligan latta yoki kanop tolasi bilan ketkaziladi. Tozalangandan so‘ng quriguncha artiladi;

9) g‘ilofning tashqi va ichki qismi quruq latta bilan kir va nam batamom yo‘qolgunicha artiladi;

10) tozalagich quritib artiladi.

Pistoletni *moylash* quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1) Stvol kanalini moylash. Tozalagich teshigidan latta o‘tkaziladi. Lattaga moy shimdirladi. Tozalagich stvol kanalining og‘zidan kiritilib, kanalning kesim va yuzalari yupqa moy bilan qoplanishi uchun butun uzunligi bo‘ylab bir necha marta silliq harakatlantiriladi. Patrondon stvolning orqa o‘q solinadigan qismidan latta biriktirilgan tozalagichni aylantirib moylanadi;

2) pistoletning qolgan metall qismlari va mexanizmlarini moylash. Tashqi qismlari moy shimdirligan latta bilan moylanadi. Kanallari, uyachalari hamda teshiklarini moylash uchun moy shimdirlib, tayoqchaga o‘ralgan latta qo‘llaniladi. Moy yupqa qilib tekis surtilishi lozim. Pistolet qismlaridagi ortiqcha moy pistoletning kirlanishiga sabab bo‘ladi va ishlash vaqtida to‘xtalishlarga olib kelishi mumkin;

G‘ilof moylanmaydi, balki latta bilan quritib artiladi.

3) tozalagichni moylash.

4) moylash tugallanganidan keyin pistolet yig‘iladi, ko‘zdan kechiriladi, yig‘ishning to‘g‘riliqi hamda qism va mexanizmlarining ishlashi tekshiriladi.

G‘ilof moylanmaydi, balki latta bilan quritib artiladi.

3) tozalagichni moylash.

4) moylash tugallanganidan keyin pistolet yig‘iladi, ko‘zdan kechiriladi, yig‘ishning to‘g‘riliqi hamda qism va mexanizmlarining ishlashi tekshiriladi.

Sovuqdan issiq xonaga olib kirilgan pistolet «terlab» bo‘lma gunicha moylanmaydi; suv tomchilari paydo bo‘lganida nam qurishini poylab o‘tirmay, pistoletning qism va mexanizmlari quritib artiladi va moylanadi.

Uzoq muddatga saqlash uchun topshirilayotgan pistolet astoydil tozalanishi, stvol kanali hamda zarbdor-tepki mexanizmi suyuq miltiq miltiq moyi bilan moylanishi, bir qavat maxsus shimdirligan eritmali va ikki qavat parafinli qog‘ozga o‘ralishi hamda karton qutiga zichlab joylashtirilishi kerak.

Pistoletning qism va mexanizmlari +5°C va undan past haroratda faqat suyuq miltiq moyi bilan moylanishi lozim.

IV-BOB. MAKAROV PISTOLETINING QISM, MEXANIZMLARI VA ANJOMLARINING TUZILISHI HAMDA VAZIFALARI


1-§. PISTOLET QISM VA MEXANIZMLARINING TUZILISHI VA VAZIFALARI.

Stvolli asos tushiriluvchi halqa bilan (28-rasm). Stvol o‘qning uchishiga yo‘nalish berish uchun xizmat qiladi. Stvol ichidan to‘rtta chapdan o‘nga og‘uvchi kertiklar mavjud va ular stvol ichini to‘rtta hoshiyaga ajratadi. Kertiklar o‘jni aylanma harakat qilishga majbur qiladi. Stvol kanalining ikki qarama-qarshi hoshiyasi o‘rtasidagi masofa kalibr deb atalib, u pistoletda 9 mm ga tengdir. Stvol kanalining orqa qismi silliq va diametri kattaroqdir; u patron joylashishi uchun xizmat qiladi va patrondon deb ataladi.

Stvolning orqa qismida stvolni ramka tirkagiga biriktirish uchun patrondon hamda stvol shtifti uchun teshik mavjud. Patrondonning quyi qismida patronni magazindan patrondonga yo‘naltirish uchun qiyalik bor.

Stvolning tashqi qismi silliq. Unga qaytaruvchi prujina tor diametri bilan kiydiriladi.

Stvol ramkaga preslab ulanadi va shtift yordamida mahkamlanadi.



28-rasm. Stvolli asos tushiriluvchi halqa bilan:

a – chap tomoni; b – o‘ng tomoni: 1 – dasta asosi; 2 – stvol; 3 – stvolni mustahkamlash uchun stoyka; 4 – tepki ilgagi va tushiriluvchi halqasining bo‘rtiqini joylashtirish uchun darcha; 5 – tepki ilgagini sapfalari uchun uyachalar; 6 – tepki tyagasining old sapfasi joylashishi va harakatlanishi uchun egri paz; 7 – tepki va sheptalo sapfalari uchun uyachalar; 8 – zatvor harakatini yo‘naltirish uchun pazlar; 9 – jangovar prujina uchun darcha; 10 – zatvor tutqichi uchun o‘yiq; 11 – dastani vint va jangovar prujinani surgich (zadvijka) yordamida mustahkamlash uchun rezbali teshigi bo‘lgan o‘siq (priliv); 12 – magazin zashchyolkasi uchun qirqim; 13 – tushiriluvchi halqani mustahkamlash uchun zaklevka uyachasi (priliv); 14 – yon darchalar; 15 – tushiriluvchi halqa; 16 – zatvorning orqaga harakatlanishini cheklash uchun bo‘rtiq; 17 – magazinning ustki qismi kiradigan darcha.

Ramka pistoletning hamma qismlarini o‘zaro birlashtirish uchun xizmat qiladi. Ramka dasta asosi bilan bir butunlikni tashkil qiladi.

Ramkaning oldingi qismida quyidagilar mavjud: tepasida – stvolni biriktirish uchun tirkak, pastida – tushiriluvchi halqani joylashtirish uchun darcha va tushiriluvchi halqa va bo‘rtiqi. Ushbu darchaning yon devorlarida tushiriluvchi halqa sapfalari uchun sapfa uyalari mavjud. Ramka tayanchida quyidagilar mavjud: yuqori qismida – stvolni biriktirish uchun teshik; tagida – tushiriluvchi halqa boshchasini joylashtirish uchun darcha; o‘ng tomonda – tepki tyagasining oldingi sapfasi joylashishi va harakatlanishi uchun qiya botiq.

Ramkaning orqa qismida quyidagilar mavjud: tepasida – tepki va sheptaloning sapfalari uchun uyalar hamda zatvorning harakatini yo‘naltirish uchun botiqlar (tepki sapfalari uchun sapfa uyalari hamda sheptalo sapfasi uchun o‘ng sapfa uyasida qirqimlar mavjud); tagida – jangovar prujinaning kurakchalari uchun darcha.

Ramkaning o‘rta qismida magazinning yuqori qismi kirishi uchun darcha va chap devorida zatvor tutqichi uchun qirqim mavjud.

Eslatma: ayrim pistoletlarda og‘irligini kamaytirish uchun ramkada teshiklar yasalgan.

Dasta asosi qobiqni, jangovar prujinani biriktirish va magazinni joylashtirish uchun xizmat qiladi. Unda quyidagilar mavjud: pistoletning og‘irligini kamaytirish uchun o‘ng va chap tomonlarida darcha; dastaga magazinni kiritish uchun pastki qismida darcha; orqa devorida – jangovar prujinani zadvijka lo‘kidon yordamida va dastani vint yordamida biriktirish uchun rezbali teshik; pastida – magazin qisqichi (zashchyolkasi) uchun qirqim; oldingi devorida – ramkaga o‘q yordamida ni ulash uchun uyali o‘siq.

Tushiriluvchi xalqa tepki ilgagini tasodifan bosib yuborishning oldini olishga xizmat qiladi. U oldingi chekkasida zatvorning orqaga harakatini cheklaydigan o‘siqqa (bo‘rtiqga) ega.

Zatvor (29-rasm) patrondonga magazindan patronni etkazib berish, otishda stvol kanalini yopish, gilzani ushlab turish (patronni chiqarib olish) va tepkini jangovar holatga qo‘yish uchun xizmat qiladi.



29-rasm. Pistolet zatvori: a – chap tomoni; b – pastdan ko‘rinishi: 1 – mushka; 2 – selik; 3 – gilza (patron) uloqtirgich darchasi; 4 – saqlagich uyasi; 5 – kertik; 6 – stvolni qaytarish prujinasi bilan birga joylashtirish uchun kanal; 7 – zatvorni ramka bo‘ylab harakatlanirish yo‘nalishi uchun bo‘rtiqlar; 8 – zatvorni zatvor tutqichiga qo‘yish uchun tish; 9 – qaytarish uchun paz; 10 – vzvod richagini ajratuvchi bo‘rtig‘i uchun paz; 11 – sheptaloni vzvod richagidan ajratish uchun chuqurcha; 12 – olib borgich; 13 – vzvod richagini sheptalodan ajratish uchun bo‘rtiq; 14 – vzvod richagi ajratuvchi bo‘rtig‘ini joylashtirish uchun chuqurcha; 15 – tepki uchun paz; 16 – bo‘rtiq.

Zatvorning tashqari qismida: mo‘ljalga olish uchun mushka; mo‘ljal (selik) uchun ko‘ndalang botiq (paz); mushka va mo‘ljal o‘rtasida yarqirashning oldini olish uchun uzunasiga o‘sinq (nasechka); o‘ng tomonida – otilgan gilza (patron)ni uloqtirish uchun darcha; uloqtirgich uchun botiq (paz); uloqtirgich siqvchisi (gnetok) va prujinasi uchun uya; chap tomonida – saqlagich uchunuya va saqlagichni tutib turish uchun ikkita o‘yiq: tepadagisi – bayroqchaning saqlagich holati uchun va pastdagisi – bayroqchaning «o‘t och» holati uchun; yuqoridagi botiq yonida qizil nuqta mavjud bo‘lib, bayroqcha «o‘t och» holatiga qo‘yilganda ochiladi, saqlagichga qo‘yilganda esa yopiladi; ikkala tomondan – zatvorni qo‘l bilan orqaga tortish qulay bo‘lishi uchun tishli yuza; zatvorning orqa chekkasida – tepkinining o‘tishi uchun botiq (paz) mavjud.

Zatvor ichida: stvolni qaytaruvchi prujinasi bilan joylashtirish uchun kanal; ramkada zatvor harakatini yo‘naltirish uchun bo‘ylama bo‘rtiqlar; zatvorni zatvor tutqichiga qo‘yish uchun tish; bo‘rtiq; qaytargich uchun botiq (paz); vzvod dastagining ajratuvchi tumshug‘i (bo‘rtig‘i) uchun botiq (paz); gilza tubi joylashishi uchun kosacha; magazindan patronni patrondonga eltish uchun yuborgich (dosilate); vzvod dastagini sheptalodan ajratish uchun bo‘rtiq; bositgan holatida vzvod dastagining ajratuvchi bo‘rtig‘i joylashishi uchun o‘yiq; zatvor bo‘rtiqining o‘ng tomonida bositgan holatda zatvorni ushlagichi bilan birga echib olish vaqtida sheptaloni vzvod dastagidan ajratish uchun mo‘ljallangan o‘yiq; turkichni joylashtirish uchun kanal mavjud.

Turkich (30-rasm) pistonni chaqish uchun xizmat qiladi. Unda quyidagilar mavjud: oldingi qismida – boyok, orqa qismida – saqlagich uchun turkichni zatvor kanalida ushlab turadigan qirqim.

Og‘irligini kamaytirish va ishqalanishini kamaytirish maqsadida turkich uch qirrali qilib yasaladi.



30-rasm. Turkich: 1 – turgich; 2 – saqlagich uchun qirqim.

Uloqtirgich (31-rasm) gilza (patron)ni qaytargich bilan uchrashguncha zatvor kosachasida ushlab turish uchun xizmat qiladi. Unda: ilgak (uning yordamida gilza (patron) aylana ariqchasidan ilib olinadi va zatvor kosachasida ushlab turiladi) va zatvor bilan birikish uchun tovoncha; uloqtirgich tovonchasing orqa qismida – gnyotchaning bosh qismi kirishi uchun kovakcha (ustup) mavjud.

Uloqtirgichning orqa qismida tozalagich bilan gnyotchani botirish qulay bo‘lishi uchun botiqcha (viemka) mavjud. Uloqtirgich zatvordagi botiqqa (pazga) joylashtiriladi.


Uloqtirgich siquvchisi (gnetok)ning bosh qismi yo‘g‘onlashgan bo‘lib, unga uloqtirgich siquvchisining orqa qismiga kiydirilgan kichikroq diametrdagi prujinasining oldingi uchi tiraladi.

Uloqtirgich siquvchisi uloqtirgich prujinasini bilan birga zatvor uyachasiga o‘rnataladi. Prujina ta’sirida uloqtirgichning ilgichi doimo zatvor kosachasi tomon og‘ishib turadi.



31-rasm. Uloqtirgich: 1 – zasep (ilgak); 2 – zatvor bilan birlashtirish uchun tovoncha; 3 – gnetok; 4 – uloqtirgich prujinasi.

Saqlagich (32-rasm) pistoletni ishlatalishda xavfsizlikni ta’minlaydi.



32-rasm. Saqlagich: 1 – saqlagich bayroqchasi; 2 – fiksator; 3 – ustup; 4 – qovurg‘a; 5 – tepkini zarbini bloklash uchun zasep; 6 – bo‘rtiq.

U quyidagilardan iborat: saqlagich holatini «o‘t ochish» holatidan «saqlash» holatiga o‘tkazish uchun bayroqcha, saqlagichni qo‘yilgan holatda ushlab turish uchun fiksator; saqlagichni «saqlash» holatiga o‘tkazishda sheptaloni aylantirish va tepkini jangovar holatdan chiqarish uchun tokchali pog‘onasiga (ustupga) ega bo‘lgan o‘q; saqlagichni «saqlash» holatiga qo‘yishda zatvorni ramka bilan

yopish uchun qovurg‘a; tepkini «saqlagich» holatida yopib qo‘yadigan ilgak, saqlagichga qo‘yilganda, tepki zarbasini qabul qiladigan bo‘rtiq.

Saqlagich zatvordagi uyaga joylashtiriladi.

Mo‘jal (*selik*) mushka bilan birgalikda mo‘jalga olish uchun xizmat qiladi. U o‘zining asosi bilan zatvorning ko‘ndalang botig‘iga o‘rnataladi.

Qaytaruvchi prujina (33-rasm) o‘q otishdan keyin zatvorni oldingi holatiga qaytarish uchun xizmat qiladi. Prujina uchlaridan birining diametri boshqa buramalarinikidan kichik bo‘ladi. Prujina shu halqasi bilan pistoletni yig‘ish paytida stvolga kiydiriladi. Bundan pistoletni qismlarga ajratish paytida prujinaning stvolda mustahkam turishini ta’minlash maqsadi ko‘zlanadi. Prujina stvolga kiydiriladi, u stvol bilan birga zatvor kanaliga joylashtiriladi.



33-rasm. *Qaytaruvchi prujina*.


Zarbdor-tepki mexanizmi (34-rasm) tepki, prujinali sheptalo, tepki tyagasi (vzvod dastagi bilan), , jangovar prujina va jangovar prujina surgichidan iborat.




34-rasm. Zarbdor tepki mexanizmi: 1 – prujinali sheptalo; 2 – tepki tyagasi vzvod richagi bilan; 3 – jangovar prujina; 4 – tepki ilgagi; 5 – jangovar prujina surgichi; 6 – tepki.

Tepki (35,35,1-rasmlar) turtkichga zarba berish uchun xizmat qiladi. Uning tepasida – qo‘l bilan jangovar holatga keltirish uchun tishli boshcha; oldingi yuzasida – tepki jangovar holatdan chiqarilganda erkin harakatlanishi uchun qirqim; saqlagich ilgagi uchun chuqurcha; tepki asosida – ikkita bo‘rtiq (ustup); tepadagisi – saqlagich holat (vzvod), pastdagisi – jangovar holat; yon tomonlarida – tepki ramkaning sapfali uyalarida aylanadigan sapfalar hamda og‘irligini kamaytirish uchun yoysimon vitochkalar; o‘ngda – tepkini vzvod dastagi bilan jangovar holatga keltirish uchun o‘z-o‘zidan o‘qlanish tishi; chapda – tepkini saqlagich bilan qulflash uchun bo‘rtiq; pastida – jangovar prujinaning keng kurakchasi uchun botiq; o‘ng tomonda tepki asosining pastki qismida – vzvod dastaginining tovonchasi joylashishi uchun aylana o‘yiq.

Tepkining sapfalari tepkini ramkadan erkin chiqarib olish uchun kemtiklarga ega.



35-rasm. 1 – nasechkali kallak; 2 – saqlagich uchun qirqim; 3 – o‘yiq; 4 – saqlagich vzvod; 5 – jangovar vzvod; 6 – sapfalar; 7 – samovzvod tishi; 8 – bo‘rtiq (ustup); 9 – chuqurcha; 10 – halqasimon chuqurcha.




35,1-rasm. Tepkini saqlagich bilan quflash sxemasi: 1-sheptalo tishchasi; 2-ustup; 3-saqlagich zasepi

Sheptalo (36-rasm) tepkini jangovar va saqlagich holatda ushlab turish uchun xizmat qiladi. Unda: tepkining ustuplari bilan ilashish uchun buruncha; ramka uyalarida sheptaloning aylanishi uchun sapfalar; chapda – saqlagichni «saqlash» holatiga qo‘yganda saqlagich ustupining tokchasi bilan sheptaloni ko‘tarish uchun tish; o‘ngda – tepki qo‘yib yuborilganda, vzvod dastagi ta’sir etadigan bo‘rtiq mavjud.


Sheptalo o‘qining chap sapfasiga prujina kiydirilgan. Bu prujinaning bo‘sh tomoni ilgak shaklida bukilgan bo‘lib, u zatvor turtkichi elkasiga kiydiriladi.

Prujina o‘zining tortishish kuchi bilan sheptalo tumshug‘ini tepkiga bosadi. Sheptalo o‘qining o‘ng tarafı kemtikli bo‘lib, uning ramkadan ajratilishini engillashtiradi.



36-rasm. Sheptalo: 1 – sheptalo sapfalari; 2 – tish; 3 – bo ‘rtiq; 4 – sheptalo burunchasi; 5 – sheptalo prujinasi; 6 – sheptalo stoykasi.

Tepki tyagasi vzvod dastagi bilan (37-rasm) tepkini jangovar holatdan chiqarish va ga bosilganda tepkini jangovar holatga keltirish uchun xizmat qiladi. Tepki tyagasi chekka qismlarida sapfalarga ega.



37-rasm. Tepki tyagasi vzvod dastagi bilan: 1 – tepki tyagasi; 2 – vzvod richagi; 3 – tepki tyagasining sapfalari; 4 – vzvod richagini ajratuvchi bo ‘rtig‘i; 5 – qirqim; 6 – samovzvod bo ‘rtig‘i; 7 – vzvod richagi tovonchasi.

Oldingi sapfasi bilan u tepki ilgagiga ulanadi, orqadagi sapfasi bilan esa vzvod dastagiga ulanadi.

Vzvod dastagida quyidagilar mavjud: zatvor orqaga harakatlanganida sheptalodan uni ajratadigan ajratuvchi bo‘rtiq; sheptalo bo‘rtig‘i uchun qirqim; tepki dumiga bosilganda tepkini jangovar holatga keltiruvchi o‘zini o‘zi jangovarlash bo‘rtig‘i; jangovar prujinaning tor tovonchasi tayanadigan tovoncha. Vzvod dastaginining tovonchasi tepkining aylana o‘yig‘iga joylashadi.

Tepki ilgagi (38-rasm) tepkini jangovar holatdan chiqarish va jangovar holatga keltirish uchun xizmat qiladi. Unda sapfa, tepki tyagasi bilan ulanishi uchun dum mavjud.



38-rasm. *Tepki ilgagi*: 1 – teshik; 2 – sapfa; 3 – ilgak.

Jangovar prujina (39-rasm) tepkini va tepki tyagasini harakatga keltirish uchun xizmat qiladi. Unda tepkiga ta’sir etuvchi keng kurakcha, vzvod dastagiga va tepki tyagasiga ta’sir etuvchi tor kurakcha, o‘rta qismida dasta asosidagi rezbali teshikka biriktirish uchun olish va pastki qismida magazinni dastada ushlab qoluvchi qisqich mavjud.



39-rasm. *Jangovar prujina*: 1 – keng kurakcha; 2 – tor kurakcha; 3 – otboyka uchi; 4 – teshik; 5 – tirqish.


Keng prujinaning chekkasi egilgan bo‘lib, tepkining jangovar holatdan chiqqan holatda turishini ta’minlaydi. Jangovar prujinani vint bilan qotirishdan oldin dasta asosiga surgich yordamida mustahkamlanadi.

Dastak va vint (40-rasm) bilan asosdagi yon darchalarni berkitadi va pistoletni qo‘lga ushlashda qulaylik yaratishga xizmat qiladi. Unda qobiqni dasta asosiga biriktirish uchun teshik, kamar uchun ilgich, qobiqning dasta asosida erkin siljishi uchun egilgan tepa qismi, orqa qismining pastida magazin qisqichi uchun o‘yiq mavjud.



40-rasm. Dastak va vint: 1 – antapka; 2 – pazlar; 3 – vint uchun teshik; 4 – vint.


Zatvor tutqichi (41-rasm) – magazinda hamma patronlar ishlatib bo‘linganidan keyin zatvorni orqa holatda ushlab qoladi. Uning oldingi qismida zatvorni orqa holatda ushlab qoluvchi bo‘rtiq, qo‘lda bosib zatvorni qo‘yib yuborish uchun tishli tugmacha, orqa qismida esa sheptaloni chap tarafidagi sapfasi bilan ulash uchun tepa qismida gilzani zatvor darchasidan uloqtirish uchun qaytargich mavjud.



41-rasm. Zatvor tutqichi: 1 – zatvorni orqa holatda ushlash uchun bo‘rtiq; 2 – qovurg‘ali tugmacha; 3 –sheptalonining chap sapfasiuchun teshik; 4 – gilzani uloqtirish uchun qaytargich.

Zatvor tutqichi oldingi qismi bilan birgalikda ramkaning chap devoridagi qirqimiga qo‘yiladi.

Magazin (42-rasm) sakkizta patronni joylash uchun xizmat qiladi. U korpusi, uzatgich, uzatgich prujinasi va qopqoqdan iborat.




42-rasm. Sig‘imi sakkizta patronli magazin: 1 – magazin korpusi; 2 – uzatgich; 3 – uzatgich prujinasi; 4 – magazin qopqog‘i

Magazin korpusi (43-rasm) – magazinning hamma qismlarini birlashtiradi.

Korpus yon devorlarining tepa qismi egilgan bo‘lib, patronlar va uzatgichni korpusda ushlab turish, shuningdek zatvor patronni patrondonga uzatayotganda uni yo‘naltirishga xizmat qiladi. Uning yon devorlarida og‘irlikni kamaytirish va magazindagi patronlar sonini aniqlash uchun darchasi, pastki qismida magazin qopqog‘i uchun yonlama o‘sinq, magazin qisqichi uchun bo‘rtiq, zatvor ilgagi o‘tishi uchun bukik joylar mavjud.

Magazin dastaga dasta asosining pastki darchasidan joylanadi.



43-rasm. Magazin korpusi: 1 – darcha; 2 – qopqoqni biriktirish uchun egilgan qovurg‘a; 3 –magazinni ushlab turish uchun bo‘rtiq; 4 – qirqim;

Uzatgich (44-rasm) patronlarni uzatish uchun xizmat qiladi. U uzatgichning magazindagi harakatini yo‘naltiradigan ikkita qayrilgan chekkadan iborat. Qayrilgan chekkalarning birida, magazinda patronlar tugaganidan keyin zatvor saqlagichini yuqoriga ko‘tarib ishga tushiradigan ilgak mavjud.



44-rasm. Uzatgich (metalldan): 1 – bukilgan uchlari; 2 – zatvor tutqichi uchun tishcha.

Uzatgich prujinasi (45-rasm) o‘q otishda patronlarni uzatgich bilan birligida yuqoriga ko‘tarib uzatishga xizmat qiladi. Prujinaning pastki qismida bukilgan chekkasi bor bo‘lib, u qopqoqning teshigiga kirib berkitib qoladi.



45-rasm. Uzatgich prujinasi.

Magazin qopqog‘ida (46-rasm) prujinaning bukilgan chekkasi uchun magazin korpusidagi yonlama o‘sinqqa kiyiladigan botig‘i mavjud.




46-rasm. Magazin qopqog‘i: 1 – teshik; 2 – pazlar.

2-§. PISTOLET ANJOMLARINING VAZIFASI VA TUZILISHI.

Pistolet anjomlariga quyidagilar kiradi (47-rasm): g‘ilof, tozalagich, zaxira magazin, pistolet tasmasi.

G‘ilof pistolet, zaxira magazin va tozalagichni olib yurish va saqlash uchun xizmat qiladi. G‘ilof korpus, qopqoq, zaxira magazin uchun cho‘ntak, old va orqa tashuvchi halqalar, ilgak, tozalagich uchun halqalar hamda ichki yordamchi tasmadan iborat.



47-rasm. Pistolet anjomlari: *a* – *g‘ilof*: 1 – korpus; 2 – qopqoq;
3 – zaxira magazin uchun cho‘ntak; 4 – oldingi ko‘taruvchi halqa; 5 – orqadagi
ko‘taruvchi halqa; 6 – ilgak; 7 – tozalagich uchun halqalar; 8 – ichki yordamchi
tasma; *b* – zaxira magazin; *v* – tozalagich: 1 – tig‘; 2 – tozalagich qirqimi;
3 – bo‘rtiq; *g* – pistolet tasmasi: 1 – kamar; 2 – karabin; 3 – halqa.

Tozalagich pistoletni qismlarga ajratish, tozlash va moylashda foydalaniladi.

Tozalagichda quyidagilar mavjud: bir uchida – sheptalo prujinasining ilgagini echish va joyiga o‘rnatish uchun hamda uloqtirgichni ajratishda uloqtirgich siquvchisi (gnetok)ni burab kirg‘izish uchun bo‘rtiq, kanop losi yoki lattani qistirish uchun qirqim; boshqa uchida – tozalash vaqtida tozalagichni ushslash uchun halqa. Halqa uchida pistoletni qismlarga ajratish vaqtida dastani echib olish va biriktirish uchun tig‘ mavjud.

Pistolet tasmasi pistoletning kamarga biriktirilishini ta’minlaydi. U kamar, karabincha hamda kamarga biriktirish uchun halqadan iborat.

3-§. PISTOLETGA XIZMAT KO‘RSATISH

Pistoletning doimo toza va soz holda bo‘lishiga uni o‘z vaqtida va to‘g‘ri tozalash hamda moylash, u bilan ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish va to‘g‘ri saklash orqali erishiladi.

Pistoletni tozalash, moylash va ko‘zdan kechirish uchun noto‘liq qismlarga ajratib yig‘iladi.

Pistolet qattiq ifloslangan bo‘lsa, qor va yomg‘irdan so‘ng yoki saqlash maqsadida moylash va ta’mirlash ishlarini o‘tkazish uchun to‘liq qismlarga ajratib yig‘iladi.

Pistoletni ko‘p martta qismlarga ajratib yig‘ish tavsiya etilmaydi, chunki ko‘p qismlarga to‘liq ajratishda pistoletning qism va mexanizmlari ishdan chiqishi mumkin.

Pistoletni qismlarga ajratib yig‘ish mobaynida quyidagi qoidalarga amal qilish shart:

➤ pistoletni stol ustida, dala sharoitlarida esa toza mato ustida ajratish va yig‘ish kerak;

➤ qism va mexanizmlarni ajratilishi ketma-ketligida astalik va extiyotkorlik bilan kuch ishlatmay ajratish lozim;

➤ pistoletni yig‘ish vaqtida esa diqqat bilan ketma-ketligida va qo‘yilgan raqamlariga e’tibor berib yig‘ish kerak va boshqa pistoletlar qismlariga aralashib ketmasligi lozim.

Pistoletni tozalash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- jangovar vaziyatlarda, manyovrlarda va uzoq o‘quv mashqlarida – har kuni jang to‘xtagan vaqtida yoki mashg‘ulotlar oraligidagi tanaffuslarda;
- o‘q otishsiz mashqlardan, xizmatdan so‘ng va dala mashg‘ulotlaridan keyin – mashqlar, xizmat o‘tab bo‘lgach hamda mashg‘ulotlar tugashi bilanok;
- otishdan keyin – o‘q otish tugashi bilan (o‘q otish maydonida, tirda, dalada) stvol kanali tozalanadi, keyin quruq qilib artiladi va moylanadi; otishdan qaytib kelinganidan keyin pistoletni to‘liq tozalash amalga oshiriladi; keyingi 3-4 kun mobaynida pistoletni tozalash takrorlanadi;
- agarda pistolet ishlatilmayotgan bo‘lsa, har etti kunda bir marta tozalanishi kerak.

Moy yaxshilab tozalangan yuzaga namlik ta’sir etib ulgurmasidan zudlik bilan surtiladi.

Kazarmada va o‘q otish maydonlarda pistoletlarni tozalash maxsus jihozlangan stollarda, jangovar va yurish vaziyatlarida esa oldindan tozalangan to‘shamada, fanerda, taxtada amalga oshiriladi.

Ichki ishlar organlarida pistoletlarni tozalash maxsus o‘qni ushlab qoluvchi devorlar, moslamalar, stollar bilan jixozlangan va moyli lattalarni solish uchun yopiladigan quti hamda moy solingan jo‘mrakli idish, o‘t o‘chirish moslamalri (ognetushitel) bilan ta’minlangan qurol tozalash xonalarida amalga oshiriladi.

Pistoletni artish, tozalash va moylash uchun quyidagilar ko‘llaniladi:

- pistoletning stvolida va boshka qismlarida porox gazlarining ta’sir etishidan hosil bo‘lgan qurumlarni bartaraf etish yoki yumshatish uchun;
- miltiq moyi – pistoletning hamma metall qismlarini moylash uchun; bu moy pistolet qism va mexanizmlarini +5 °C dan past bo‘limganda ishlashini ta’minlaydi;

- 21 raqamli qishki moy – pistolet qismlarini qishda moylash uchun; bu moy – 40°C sovuqlikkacha pistolet qism va mexanizmlarining ishlashini ta'minlaydi;
- zambarak moyi – uzoq muddatga omborda saklashga topshirilayotgan pistoletlarni moylash uchun;
- toza paxta matolik latta – pistolet qismlarini artish, tozalash va moylash uchun; shuningdek, kanop tolasi – stvol kanalini tozalash uchun.

Pistoletni tozalash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- 1) artish va moylash materiallari tayyorlanadi;
- 2) pistolet qismlarga ajratiladi;
- 3) stvol kanali tozalanadi.

Tozalagichning uch qismidagi teshigidan kanop tolasi yoki latta o'tkaziladi. Kanop tolasining kalinligi shunday bo'lishi kerakki, u bemalol stvol kanaliga kiradigan bo'lsin. Kanop tolasiga ishqoriy korishma shimdiriladi va tozalagich stvol kanalining oldingi qismidan kiritilib, bir necha marta uni stvol kanali bo'yab oldinga va orqaga harakatlantiriladi. Kanop tolasi yangilanib, tozalash takrorlanadi. Keyin stvol kanali toza kanop tolasi yoki latta yordamida toza va quruq qilib artiladi. Latta ko'zdan kechiriladi, agarda unda qurum yoki zang izlari bo'lsa, stvol kanali toza bo'lgunicha tozalash davom ettiriladi. Yuqorida ko'rsatilgan usulda patrondon ham tozalanadi. Tozalab bhlinganidan keyin stvol kanali va patrondon yoriqka tutib ko'zdan kechiriladi;

4) Pistolet asosini stvoli va tushiriluvchi halqasi bilan tozalash. Qismlari latta bilan iflos va namlikdan toza bo'lguncha quruq qilib artiladi.

Zanglar ishqorli korishma shimdirilgan latta yoki kanop tolasi yordamida tozalanadi. Asosdagi botiqlarni, uyalarni va teshiklarni tozalashda yog'och cho'plar ko'llaniladi;

5) Zatvorni, qaytaruvchi prujinani, zatvor tutqichi va zarbdor tepki mexanizmining qismlarini tozalash. Agarda tozalash otishdan keyin amalga oshirilayotgan bo'lsa, zatvor kosachasi ishqoriy eritma shimdirilgan kanop tolasi yoki latta bilan qurumdan toza bo'lgo'nga tozalanadi. Agarda pistoletdan

otilmagan bo'lsa, zatvor kosachasi quruq latta bilan artiladi. Qo'l etmas joylarini artishda yog'och cho'pdan foydalaniladi.

Boshqa metall qismlari iflos va namlikdan toza bo'lguncha latta bilan quruq qilib artiladi.

Zatvor, zatvor tutqichi, zarbdor tepki mexanizmining qismlari xizmatdan so'ng va mashg'ulotlardan keyin yig'ilgan holda tozalanadi. Otishdan keyin yoki pistolet yomg'irda kolsa, qismlarga ajratib tozalanadi;

6) Dastak kobig'i quruq latta yoki kanop bilan artiladi;

7) Magazinni tozalash. Xizmatdan so'ng va mashg'ulotdan keyin magazin yig'ilgan holda, otishdan keyin va yomg'irda kolganda yoki kuchli ifloslanganda, qismlarga ajratgan holda tozalanadi. Xizmatdan so'ng va mashg'ulotdan keyin iflos va namlik quruq latta bilan artiladi, otishdan keyin esa uzatgichdagi qurum ishqoriy eritma shimdirilgan latta yoki kanop tolasi bilan tozalanadi;

8) G'ilofning tashqi va ichki qismi quruq latta bilan artiladi.

Pistoletni moylash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1) Stvol kanalini moylash. Tozalagich teshigidan latta o'tkaziladi va unga moy shimdiriladi. Tozalagich stvol kanalining uch qismidan kiritilib, butun uzunligi bo'yicha bir necha marta silliq harakatlantiriladi. Bunda kanalning kesim va yuzalari yupqa moy bilan qoplanadi. Patrondon stvolning orqa qismidan moylanadi;

2) Pistoletning boshka metall qism va mexanizmlarini moylash. Tashqi qismlari moy shimdirilgan latta bilan moylanadi. Stvolchalari, uyachalari hamda teshiklari moy shimdirilgan va tayoqchaga o'rالgan latta yordamida moylanadi. Moy yupqa qilib surilishi lozim. Ortikcha moylash pistolet qismlarining ifloslanishiga va pistoletning ishlashidagi to'xtalishlarga sabab bo'lishi mumkin;

3) Moylash tugallanganidan keyin pistolet yig'iladi, yig'ishning to'g'riliği va qism hamda mexanizmlarning ishlashi tekshirib ko'rildi.

Pistoletni qishki moylashga o'tkazishda miltiq moyidan to'liq tozalanadi. Agarda pistolet miltiq moyidan to'liq tozalanmasa, u sovuqda ishlamaydi.

Sovo‘qdan issiq xonaga olib kirilgan pistolet moylanmaydi, balki u terlaganidan keyin qism va mexanizmlari quruq qilib artiladi va moylanadi.

Uzoq muddatga saklash uchun topshirilayotgan pistolet to‘liq tozalanishi va zambarak moyi yoki 50% zambarak va 50% miltiq moyi aralashmasi bilan qalin qilib moylanishi zarur.

4-§. PISTOLETDAN O‘Q OTISH VAQTIDAGI EXTIMOLIY TUTILISHLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH

Pistoletga doimiy ravishda o‘z vaqtida va sifatlari xizmat ko‘rsatilganda, saqlash talablariga amal qilinganda hamda u bilan extiyotkorlik bilan muomala qilinganida - pistolet jang vaqtida ishonchli va muammosiz sizga xizmat qiladi.

Ammo, uzoq muddat pistoletga xizmat (*tozalash va moylash ishlari*) o‘z vaqtida ko‘rsatilmasa yoki belgilangan sharoitlarda va tartibda saqlanmasa, shuningdek, quroq bilan extiyotsizlik bilan muomala qilinsa (*qism va mexanizmlarning eyilishi natijasida*) o‘q otish vaqtida extimoliy tutilishlarga olib keladi.

Pistoletdan o‘q otish vaqtida extimoliy tutilishlarning oldini olish uchun hamda pistoletning ishonchli va muammosiz ishlashi uchun:

- o‘q otishga pistoletni to‘g‘ri tayyorlash;
- pistoletni ko‘zdan kechirish, tozalash, moylash ishlarini o‘z vaqtida va o‘rnatilgan qoidalarga asosan amalga oshirish; ayniqsa, pistoletning ishqalanuvchi qismlari tozaligi va moylanishini nazorat qilish;
- pistoletni ta’mirlash ishlarini o‘z vaqtida amalga oshirish;
- o‘q otishdan oldin patronlarni ko‘zdan kechirish; nosoz, zanglagan va kir bo‘lgan patronlardan o‘q otishda ishlatmaslik;
- o‘q otish vaqtida, shuningdek, harakatlanishda pistolet kirlanishi hamda ortiqcha zarbalardan saqlash;
- jangda yoki uzoq muddatli o‘q otish vaqtida imkoniyat paydo bo‘lishi bilan quroqni tozalash va moylash;

- agar pistolet uzoq vaqt davomida sovuq xavoda bo‘lgan bo‘lsa, zatvorni bir necha marotaba qo‘l bilan ortgi holatga tortib qo‘yib yuborish kerak, har bir tortganda tepki ilgagini bosib zarbdor tepki mexanizmini ishga tushirish lozim.

Pistoletdan o‘q otish vaqtida extimoliy tutilish kuzatilsa, pistoletni qayta o‘qlash (*zatvorni ortga tortish*) orqali bartaraf etish mumkin. Pistoletni qayta o‘qlash orqali extimoliy tutilish bartaraf etilmasa, extimoliy tutilish sabablarini aniqlash va bartaraf etish usullari quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan:

Tutilish	Tutilish sababi	Tutilishni bartaraf etish usuli
1. Tutilish: zatvor old holatida, tepki zarba bergen, ammo o‘q otilmadi..	1. Patron pistoni turtgich zarbasi natijasida ezilgan. 2.Turtgich va tepki moylash vositasi quyuuqlashgan yoki ifloslangan. 3. Dastak vinti oxirigacha qotirlmagan (jangovar prujina surgichi mavjud bo‘lmaydigan pistoletlarda).	1. Pistoletni qayta o‘qlash va o‘q otishni davom ettirish. 2. Pistoletni ko‘zdan kechirib tozalab, moylash. 3. Dastak vinti oxirigacha qotirish.
2. Zatvor patronni to‘liq yopmagan: zatvor to‘liq old holatiga bormasdan to‘xtab qolgan; tepki xarakatga kelmayapti.	1. Patronnik va ramka pazlari ifloslangan. 2. Uloqtirgich va prujina ifloslanishi natijasida xarakati og‘irlashgan. .	Zatvorni qo‘l yordamida oldinga qarata engil turtib surish. Pistoletni ko‘zdan kechirib tozalash va moylash.
3. Magazindan patron patrondonga uzatilmagan: zatvor old holatida, patrondonda patron yo‘q; zatvor patron bilan o‘rtal holatda qolib ketdi, patronni oxirgacha patronnikka joylamay.	1. Magazin va pistolet zatvorining xarakatlanish qismlari ifloslangan. 2. Magazin korpusining yuqori qismi deformasiyalangan.	1. Pistoletni qayta o‘qlash va o‘q otishni davom ettirish. Pistolet va magazinni tozalash. 2. Nosoz magazinni zaxiradagisi bilan almashtirish.
4. Zatvor gilzani maxsus o‘yiq joyida tutolmayapti: zatvorning gilza uloqtirgich tuynugidan gilza uloqtirilmadi, aksincha ushbu tuynukda qisilib qoldi	1. Pistolet zatvorining xarakatlanish qismlari ifloslangan. 2. Gilza uloqtirgich va prujina nosoz holda.	1. Qisilib qolgan gilzani olib tashlash va o‘q otishni davom ettirish. 2. Gilza uloqtirgich va prujinani echib tozalab moylash; agar gilza uloqtirgich va prujinada nosozlik aniqlansa qurolni ta’mirlashga topshirish.

5-§. PISTOLETNI KO‘ZDAN KECHIRISH

Pistoletni ko‘zdan kechirish quyidagilarga bo‘linadi:

1. Pistoletni yig‘ilgan holda ko‘zdan kechirish;
2. Pistoletni qismlarga ajratilgan holda ko‘zdan kechirish;
3. Jangovar patronlarni ko‘zdan kechirish

Pistoletni jangovar xolatini va sozligini aniqlash maqsadida, ichki xizmat nizomida ko‘rsatilgandek, vaqtida ko‘zdan kechirib turiladi. Pistolet yig‘ilgan yoki qismlarga ajratilgan holda ko‘zdan kechiriladi.

Pistolet bilan qurollangan har bir xodim o‘q otish mashg‘ulotidan hamda qurolni tozalash va moylashdan oldin pistoletni ko‘zdan kechirishi shart.

Mashg‘ulot va otishdan oldin pistolet yig‘ilgan holda, tozalash paytida esa qismlarga ajratilgan holda ko‘zdan kechiriladi.

Pistoletni har kuni ko‘zdan kechirishda quyidagilarni tekshirish zarur:

- metall qismlarda zang, ifloslik, tirlagan joylar, yoriqlar yo‘qligi va moyning holati;
- zatvor, magazin, zarbdor tepki mexanizmi, saqlagich va zatvor tutqichni soz ishlashi;
- mo‘ljal bilan mushkani sozligini;
- dastakka magazin ushlab turilishini;
- quvur kanalining tozaligini.

Ko‘zdan kechirish vaqtida nosozliklar aniqlansa ularni tezda bartaraf etish lozim.

6-§. PISTOLETNI SAQLASH TARTIBI

Pistolet har doim soz holatda bo‘lishi kerak. Pistolet g‘ilofni va uskunalarini saqlash pistolet biriktirilgan hodimga yuklanadi.

Kazarmada yoki lagerda joylashganda, pistolet g‘ilofdan chiqarilgan holda, ichki xizmat nizomida ko‘rsatilganidek, uyali shkaflarda yoki qutilarda saqlanadi. Saqlashda pistolet o‘qlanmagan bo‘lishi kerak.

Qisqa muddat aholi punktlarida, xonadonlarda yashaganda pistolet xodimning o‘zida saqlanadi. Dala mashg‘ulotlarida, yurishda yoki mashinada ketayotganda, pistolet kamariga taqilgan g‘ilofda olib yuriladi. Pistolet quvurining shishishi yoki yorilishining oldini olish uchun, uning quvuriga biron narsa tiqish taqiqlanadi.

Otishdan boshqa hamma vaqt pistoletning saqlagichi «saqlash» holatida bo‘lishi kerak. Agarda pistoletni nam g‘ilofga solishga to‘g‘ri kelsa, birinchi imkon bo‘lganidayoq pistoletni chiqarib artib tozalash va moylash zarur.

Issiq hududlarda havoda chang bo‘lganda, shuningdek havo namligi kuchli hududlarda pistolet maxsus ko‘rsatmaga binoan saqlanadi.

Pistoletga turg‘um ximyoviy zaxarlash vositalari ta’sir etganda, uni degazasiya qilish ichki ishlar idoralari ximyoviy xizmatning maxsus ko‘rsatmasiga binoan amalga oshiriladi.

IV-BOB. MAKAROV PISTOLETIDAN O‘Q OTISH MASHQLARINI BAJARISH

1-§. PISTOLETDAN O‘Q OTISH USULLARI

Pistoletdan otish tik turib, tizzalagan holda, yotib va qo‘lga tayangan holda amalga oshiriladi. Otishni barcha usullardan foydalanib, tez va nishonni ko‘zdan qochirmasdan amalga oshirish zarur.

Pistoletdan o‘q otish quyidagi usullar bilan bajariladi:


- otishga tayyorlanish (pistoletni o‘qlash, o‘q otish holatini egallah);
- o‘q otishni amalga oshirish (mo‘ljalga olish, tepkini qo‘yib yuborish);
- o‘q otishni tugallash (tepki dumiga bosishni to‘xtatish, saqlagichni yopish, pistoletni o‘qsizlantirish).

Jangda pistoletdan mustaqil ravishda o‘t ochiladi. O‘quv mashg‘ulotlarida har xil holatda otishga komandalar beriladi. Masalan: «**Falon nishonga qarata, yotgan holda** (tizzalab, tik turgan holda) – **o‘t och!**». Bu komanda bo‘yicha ko‘rsatilgan holat egallanadi, saqlagich bayroqchasi pastga bosiladi, mo‘ljalga olinib, o‘zini o‘zi jangovarlash orqali o‘q otiladi. Nishonga aniq urish uchun har bir xodim o‘zining individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, o‘ziga qulay holatni egallaydi.

Otishga tayyorlanish

Otishga tayyorgarlik ko‘rilayotganda «**O‘qla!**» komandasini bo‘yicha quyidagilar bajarilishi zarur:

- g‘ilofdan pistoletni chiqarish, magazinni dasta asosidan chiqarish; pistoletni g‘ilofiga solish;
- magazinni patronlar bilan o‘qlash (48-rasm); o‘ng qo‘l bilan magazinga birin-ketin patronlarni joylash, bunda patron magazin korpusi yon devorchalarining yuqori qismidagi egilgan qirralari ortiga kirmagunicha bosh barmoq bilan bosiladi hamda pistoni orqa devoriga tegmagunicha itarib qo‘yiladi;



48-rasm. Magazinni patronlar bilan o‘qlash.

- o‘ng qo‘l bilan pistoletni g‘ilofdan chiqarib, magazinni dastaga kiritish;
- patronni patrondonga kiritish, buning uchun saqlagichni o‘chirish (bayroqchasini pastga tushirish), zatvorni orqaga tortish va qo‘yib yuborish;
- saqlagichni ishga solish (bayroqchasini bosh barmoq bilan ko‘tarib, qizil doirachani yopish) va pistoletni g‘ilofga joylash.

Eslatma. Jangovar holatda pistolet avvaldan o‘qlangan bo‘lishi kerak.

2-§. TIK TURGAN HOLDA OTISH

Tik turgan holda otish holatini egallash uchun:

- yarim chapga burilib, o‘ng oyoq nishon yo‘nalishida elka kengligida oldinga qo‘yiladi, bunda gavda og‘irligi ikki oyoqqa teng tushishi kerak;
- pistolet g‘ilofdan chiqariladi;
- pistoletning og‘zini yuqoriga qaratgan holda, o‘ng ko‘z oldida ushlanadi; chap qo‘l erkin tushirilgan yoki belga qo‘yilgan bo‘ladi.

Tizzalagan holda otish holatini egallash uchun chap oyoqni orqaga qo‘yib tizzaga cho‘kiladi; pistolet g‘ilofdan chiqariladi, saqlagich echiladi; tepki jangovar holatga keltiriladi; pistolet yuqorida ko‘rsatilgandek ushlanadi.

Yotgan holda otish holatini egallash uchun chapga yarim burilgan holda o‘ng oyoq yarim qadam oldinga qo‘yiladi; tezda chap tizzaga cho‘kiladi; keyin chap qo‘l bilan erga tayangan holda nishon yo‘nalishida yotiladi, oyoqlar tovoni

tashqariga qaragan holda biroz ochiladi. Pistolet g‘ilofdan chiqariladi, saqlagichdan echiladi va tepki jangovar holatga keltiriladi (49-rasm).



49-rasm. Tik turib bir qo‘llab otish holati

Eslatma: 1. Chap qo‘llab otishda gavda holati aksincha bo‘ladi – o‘ng qo‘l bilan pistolet g‘ilofidan chiqariladi va chap qo‘lga olinadi.

2. Agar o‘zi o‘qlangan pistoletdan otilmasa, ya’ni o‘q otishdan avval tepki jangovar holatga qo‘yiladigan bo‘lsa, saqlagich o‘chirilganidan keyin o‘ng qo‘l bosh barmog‘i bilan tepki boshchasini bosib, tepki jangovar holatga qo‘yiladi.

Tik turgan holda ikki qo‘llab o‘q otish holatini egallash (50-rasm):



50-rasm. Tik turgan holda ikki qo‘llab o‘q otish holati

- nishonga qarab turiladi, oyoqlar biroz bukilgan holda elka kengligida qo‘yiladi, gavda og‘irligini ikkkala oyoqqa bir xil taqsimlab, chap oyoq (bo‘yga moslab) biroz oldinga suriladi;
- g‘ilof qopqog‘i tugmasidan echilib, pistolet undan chiqarib olinadi;
- pistolet tik turgan holda bir qo‘llab otish uchun belgilangan holatda ushlanadi, bunda chap (o‘ng) qo‘l o‘ng (chap) qo‘l kaftini ostidan ushlab va qoplاب turadi, chap (o‘ng) qo‘l bosh barmog‘i esa stvol yo‘nalishi bo‘ylab zatvor chizig‘idan pastda turadigan qilib joylashtiriladi.

3-§. TIZZALAB O‘Q OTISH

Tizzalab o‘q otish holatini egallash uchun (51-rasm) chap oyoq kaftining uchi o‘ng oyoq poshnasining ro‘parasida turadigan tarzda orqaga suriladi; tezda chap tizzaga cho‘kib, poshnaga o‘tiriladi; o‘ng oyoqning tizzasidan kaftigacha imkon qadar tik tutiladi, oyoq kaftining uchi esa nishonga yo‘naltiriladi; pistolet g‘ilofidan chiqariladi, agar o‘q otish tepkini jangovar holatga qo‘yishdan boshlanadigan bo‘lsa, saqlagich o‘chirilib, tepki jangovar holatga qo‘yiladi va pistolet nishonga qaratilgan holda ushlab turiladi.



51-rasm. Tizzalab o‘q otish holati

4-§. YOTGAN HOLDA O‘Q OTISH

Yotib o‘q otish holatini egallash uchun (52, 53-rasmlar) o‘ng oyoq bilan oldinga va biroz o‘ngga to‘liq qadam tashlanadi; oldinga engashib, chap tizzaga cho‘kiladi va chap qo‘l erga, barmoqlarini o‘ngga qaratib, gavdadan biroz oldinga qo‘yiladi; so‘ngra ketma-ket chap oyoq soni va chap qo‘l bilagiga tayangan holda, chap yonboshga yotiladi va tezda qoringa o‘giriladi, oyoqlar, uchlari tashqariga qaratilgan holda, elka kengligida tashlanadi. Pistolet g‘ilofidan chiqariladi, saqlagichdan echiladi va tepki jangovar holatga qo‘yiladi, agar otish o‘zini o‘qlash holatidan amalga oshiriladigan bo‘lsa, saqlagichdan chiqarilganidan keyin o‘ng (chap) qo‘l ko‘rsatkich barmog‘i, tepki ilgagiga tegmagan holda, tushiriluvchi halqaga qo‘yiladi.



52-rasm. Yotib o‘q otish holati.



53-rasm. Yotib ikkala qo‘lda o‘q otish holati.

O‘q otishni amalga oshirish

Barcha holatlardan o‘q otish uchun: mo‘ljalga olish nuqtasi tanlanadi; nishonni kuzatishni to‘xtatmagan holda pistolet dastasidan o‘ng qo‘l panjasini bilan ushlangan holda oldinga uzatiladi; shu qo‘l ko‘rsatkich barmog‘ining birinchi bo‘g‘ini bilan tepki ilmog‘ining dumiga bosiladi; o‘ng qo‘lning bosh barmog‘i pistolet dastasining chap tomonidan stvolga parallel tarzda uzatiladi, oldinga uzatilgan o‘ng qo‘l zo‘riqmasdan erkin holda tutiladi, shu qo‘l panjasini stvol kanali va qo‘l bilagi o‘qi bo‘ylab o‘tadigan yuzada ushlanadi; pistolet dastasini siqmasdan, imkon qadar bir xilda ushslash kerak.

Mo‘ljalga olish uchun nafas olish tabiiy chiqarilish vaqtida to‘xtatiladi, chap ko‘z qisiladi, o‘ng ko‘z bilan mo‘ljal kemtigidan mushkaga qaraladi, bunda mushka mo‘ljal kemtigining o‘rtasida turishi kerak. Uning tepe qismi esa mo‘ljal (qorovul)ning yuqori chekkalari bilan teng turishi (to‘g‘ri mo‘ljal olinishi) lozim; xuddi shu holatda pistolet mo‘ljalga olish nuqtasiga to‘g‘rilanadi (bunda pistolet yonboshga burilmaydi), ayni vaqtning o‘zida tepki dumiga bosish boshlanadi.

Eslatma. Agar otayotgan odam alohida chap ko‘zni yumishi qiyin bo‘lsa, ikkala ko‘zi ochiq holda mo‘ljal olishiga ruxsat etiladi.

Tepkini qo‘yib yuborish uchun nafas olishni to‘xtatgan holda, tepki dumiga ko‘rsatkich barmoqning birinchi bo‘g‘ini bilan asta bosiladi; bosish tepki otuvchiga sezilmagan holda, go‘yoki o‘z-o‘zidan jangovar holatdan chiqib ketgunicha, ya’ni o‘q otilishi amalga oshmagunicha davom ettiriladi.

Tepki avvaldan jangovar holatga qo‘yilganida uning halqasi (ilgagi) otilish amalga oshgunicha erkin harakat qiladigan muayyan masofa borligini inobatga olish lozim.

Tepki ilgagini bosishda barmoqning bosimi to‘g‘ri orqaga qaratilgan bo‘lishi shart. Otuvchi tepki ilgagiga berilayotgan bosimni bir tekisda oshirib borishi lozim; bosimni oshirib borish davomida mo‘ljal bilan mushka o‘rtasidagi to‘g‘rilik buzilmasligi kerak. Agar mo‘ljalga olish vaqtida to‘g‘ri mushka mo‘ljalga olish nuqtasidan ancha og‘adigan bo‘lsa, tepki ilgagiga berilayotgan bosimni oshirmay va kamaytirmay turib, mo‘ljalni aniqlashtirish hamda o‘q otish

yuz bermagunicha tepki ilgagiga bosimni yana oshirib borish kerak. Tepkini bosayotganda to‘g‘ri mushka mo‘ljalga olish nuqtasi atrofida asta tebranishiga e’tibor bermaslik kerak. Odatda, to‘g‘ri mushka mo‘ljalga olish nuqtasiga eng muvofiq kelgan paytda tepki ilgagini oxirigacha bosishga harakat qilish tepki ilgagining siltanishiga va o‘qning nishondan og‘ishiga olib keladi.

Agar otuvchi tepki ilgagini bosayotganida boshqa nafas olmay turolmasligini sezsa, tepki ilgagiga berilayotgan bosimni oshirmay va kamaytirmay turib, nafas olishi, so‘ngra, nafasni to‘xtatib, tepki ilgagiga bosishni davom ettirishi lozim.

O‘q otishni tugallash

O‘q otishni tugallash **vaqtinchalik** yoki **to‘liq** bo‘lishi mumkin. **Vaqtinchalik o‘q otishni tugatish uchun** «To‘xta» komandasini beriladi. Bu komanda bo‘yicha otuvchi tepki dumiga bosishni to‘xtatadi; o‘ng qo‘lda pistoletni ushlab turgan holda, shu qo‘lning bosh barmog‘i bilan saqlagich bayroqchasini yuqoriga ko‘taradi va, agar zarur bo‘lsa, pistoletni o‘qsizlantiradi.

Pistoletni o‘qsizlantirish uchun:

- pistolet dastasidan magazin chiqariladi;
- o‘qlangan magazin pistolet dastasiga kiritiladi;
- agar otish zarurati bo‘lsa, saqlagich pastga bosiladi. Otish tepkini oldindan jangovar holatga keltirib yoki o‘zini o‘zi jangovar holatga keltirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

O‘q otishni to‘liq tugallash uchun «O‘qsizlantir» komandasini beriladi.

Bu komanda bo‘yicha:

- tepki dumiga bosish to‘xtatiladi;
- saqlagich bayroqchasi yuqoriga ko‘tarilib yopiladi;
- pistolet o‘qsizlantiriladi.

Pistoletni o‘qsizlantirish uchun:


- magazin dastadan chiqariladi;
- saqlagichdan echiladi (bayroqcha pastga bosiladi);

- patrondondan patronlar chiqarib olinadi, buning uchun pistolet dastasidan o‘ng qo‘l bilan ushlagan holda, zatvor chap qo‘l bilan orqaga tortib qo‘yib yuboriladi; zatvor uloqtirib yuborgan patron erdan olinadi;
- saqlagich bayroqchasi yuqoriga ko‘tarilib yopiladi;
- pistolet g‘ilofga joylanadi;
- magazindan patronlar chiqarib olinadi (54-rasm);
- pistolet g‘ilofdan chiqariladi; magazin dastaga o‘rnatiladi; pistolet qaytadan g‘ilofga joylanadi va g‘ilof qopqog‘i berkitiladi.



54-rasm. Patronlarni magazindan chiqarish

«Quroq – ko‘rikka» komandasini bo‘yicha otuvchi quyidagi larga majbur: chap qo‘l bilan magazinni pistolet dastasining asosidan chiqarish hamda ikkala qo‘lni elkalari balandligidan ko‘tarish (o‘ng qo‘lda pistolet, chap qo‘lda esa magazin ushlanadi) (55-rasm).



55-rasm. «*Qurol – ko'rikka*» komandasini bajarish.

O‘q otish rahbari smena ortidan yurib magazin patrondonida patronlar yo‘qligiga ishonch hosil qiladi, «**ko‘rildi**» komandasini beradi.

Bu komanda bo‘yicha o‘q otuvchi quyidagilarga majbur:

- o‘ng qo‘l bosh barmog‘i bilan zatvor zaderjkasi knopkasini bosish va zatvorni bo‘shatish;
- tepki ilgagini bosib, nishonga qarata nazorat tariqasida tepkini bosish;
- saqlagichni «saqlash» holatiga qo‘yish;
- magazinni dasta asosiga o‘rnatish;
- pistoletni g‘ilofga olish va qopqog‘ini ilgakka ilish.

5-§. PANA JOYDAN TAYANGAN HOLDA O‘Q OTISH

Tayanch o‘q otishning samaradorligini oshirish uchun qo‘llaniladi. Tayanchning balandligiga qarab o‘q otuvchi otish uchun tegishli holat egallashi lozim (56-rasm).



56-rasm. Panadan turib o‘q otish uchun holat.

Tayangan holda o‘q otish chog‘ida o‘ng qo‘l pistolet bilan tayanch ustiga shunday qo‘yiladiki, o‘ng qo‘l kafti osilib turishi, pistolet dastasi esa tayanchga tegmasligi lozim.


Pana joydan dushman kuzatuvini qiyinlashtirish va uning o‘qidan himoyalanish uchun foydalilanildi.

Pana ortidan qo‘l bilan oq otish uchun tegishli holat (tik turish, tizzalab turish, yotish) egallanadi hamda o‘ng qo‘l kafti pistolet bilan erkin turadigan tarzda tayanchga qo‘yiladi.


6-§. PISTOLETDAN O‘Q OTISH QOIDALARI

Pistolet bilan qurollangan xodim vaziyatni hisobga olgan holda, mustaqil ravishda o‘t ochadi.


O‘q otar qurollardan o‘t ochish uchun nishonni to‘g‘ri mo‘ljalga olish juda katta axamiyatga ega (57-rasm).



TO‘G‘RI



NOTO‘G‘RI



NOTO‘G‘RI

57-rasm. Nishonni to‘g‘ri mo‘ljalga olish.


Otish uchun joy tanlash hamda o‘t ochish vaqtida pistoletni to‘g‘ri ushslash

O‘q otish nishonni qisqa muddatda mahv etish imkonini beradigan har qanday joydan va har qanday holatda amalga oshiriladi.

Jangda pistoletdan o‘q otish uchun joy mustaqil tanlanadi. Tanlashda vaziyat va hududning xususiyatlari hisobga olinadi.

Tanlangan joy otish uchun qulay va dushman o‘qidan himoyalangan bo‘lishi kerak.

Pistoletdan o‘q otishda qurolni to‘g‘ri ushslash va tepkini to‘g‘ri bosilishiga alohida e’tibor berish lozim (58-rasm).



58-rasm. Tepki ilgagini bosishda kuch berish yo‘nalishi.

Otish uchun nishonni tanlash

Jangda pistoletdan otish uchun nishon qilib, ochiqlikda joylashgan, to'satdan paydo bo'luvchi yoki harakatlanuvchi qurollangan jinoyatchi tanlanadi. Nishon tanlashda uning ahamiyatini hisobga olish, eng yaqin turgani va eng qaltis holatdagisini tanlash lozim.

Mo'ljalga olish nuqtasini tanlash

Mo'ljalni ishonchli mahv etish uchun nishongacha bo'lgan masofani va quyidagi jadvalga asoslanib, traektoriyaning ko'tarilish kattaligini hisobga olish zarur.

50 m masofadagi qo'zg'almas nishonga otishda mo'ljalga olish nuqtasi nishonning joylashishi va balandligi hisobga olingan holda tanlanadi.

To'g'riga harakatlanayotgan nishonlarni otishda qo'zg'almas nishonlarga otish usulidan foydalaniladi. Yon tomonga harakatlanayotgan nishonlarga otishda esa mo'ljalga olish nuqtasi harakat yo'nalishi tomonga va harakat tezligini hisobga olgan holda ko'chiriladi.

Qisqa muddatga va to'satdan paydo bo'luvchi nishonlarga otishda nishonning qulay holati kutiladi va tepkining o'zini o'zi jangovar holatga kelishi usulida otiladi.

O'q otish vaqtida ta'lim oluvchilar balandlik otishini hisobga olishlari zarur (59-rasm):



59-rasm. Makarov pistoletidan 20 metr masofaga o'q otishda balandlik otishi.

Cheklangan ko‘rinishli sharoitda o‘q otish

Tunda sun’iy yorug‘lik bo‘lganida o‘q otish uchun qisqa vaqt ichida o‘q uzish uchun otuvchidan katta mahorat talab qilinadi. Joy yoritilgan vaqtda o‘q otuvchi tezda nishonni topib, pistoletni ko‘tara solib darhol o‘q uzishi yoki bir qator o‘qlar otishi kerak bo‘ladi (yoritishning davom etishiga qarab).

G‘ira-shira vaqtda hamda oydin kechada o‘q otish kunduzgi o‘q otish qoidalarida belgilangan tartibda bajariladi.

Tunda, nishonni yoritish va mo‘jalga olish imkonini bo‘lmagan paytda, o‘q sharpalarga yoki o‘q otilishidan hosil bo‘lgan chaqnashlarga va dushman tomonidan kelayotgan turli tovushlarga qarata o‘t ochiladi.

7-§. PISTOLETDAN OTISH MASHQLARI

Boshlang‘ich otish mashqlari – o‘qotar quroldan harakatsiz nishonlarga otishning boshlang‘ich bilim va ko‘nikmalarini hosil qilish uchun mo‘jallangan.

Xodimlar ushbu mashqlarni tirda, otish shaharchasida, otish maydonida, jangovar qurollar bilan bajarishni puxta o‘zlashtiradilar, bunda faqat joyda turgan holda o‘t ochiladi.

O‘quv otish mashqlari – bo‘linmalarda qurol bilan otish vaqtidagi harakatlarni bajarish, shuningdek, shaxsiy tarkibni qayta tayyorlash va bo‘linmani qayta qurollantirish davrida yangi qurolni o‘zlashtirish uchun zarur amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash hamda tiklash maqsadida o‘tkaziladi.

O‘quv otish mashqlarining ayrim elementlari otish mashqlari uchun tayyorgarlik mashqlari sifatida o‘zlashtiriladi.

Nazorat otish mashqlari – bo‘linmalarda xodimlarning qurol bilan va otish vaqtidagi harakatlarni bajarish hamda ularning otish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini aniqlash va baholash maqsadida o‘tkaziladi. Yangi qurollar bilan qayta qurollantirilayotgan bo‘linmalar shaxsiy tarkibi o‘quv va nazorat otish mashqlarini qayta tayyorlash dasturini o‘tash davrida o‘zlashtiradi.

8-§. OTISH MASHG‘ULOTLARINI O‘TKAZISHDAGI XAVFSIZLIK QOIDALARI

Xavfsizlik qoidalari – shaxsiy tarkibning xavfsizligi, qurol-aslahaning butligini ta’minlash bo‘yicha olib boriladigan chora-tadbirlar majmuidir.

Shaxsiy tarkib tomonidan otish mashg‘ulotining xavfsizligiga yuksak jangovar ko‘nikma, yuqori axloqiy-ruhiy holat, harbiy intizomga ega bo‘lish, otish asoslari va qoidalari bilish hamda aniq ketma-ketlik bilan bajarish, o‘t ochishni mahorat bilan boshqarish, yuksak darajadagi professional tayyorgarlik, boshliqlarning yuqori boshqaruvchanlik qobiliyatları orqali erishiladi.

Xodimlarning qurol-aslaha va jangovar texnikalar, ularning mo‘ljallanishi va zamonaviy jangda qo‘llanilishi bo‘yicha bilimlari sinovdan o‘tkazilganidan so‘ng ularga otish mashg‘ulotiga qatnashishlariga ruxsat beriladi.

Otish mashg‘uloti o‘tkazilayotgan har bir ob’ektda uning o‘ziga xos xususiyatlari va mahalliy sharoitlaridan kelib chiqib, otish mashg‘ulotiga chiqarilgan bo‘linmalar shaxsiy tarkibi bilishi kerak bo‘lgan xavfsizlik qoidalari bo‘yicha yo‘riqnomalik ishlab chiqilishi mumkin.

Xavfsizlik qoidalari, mashq bajarish tartibi va shartlari, qurol-aslahalarning taktik-texnik tavsiflari, moddiy qismlari, foydalanish qoidalari hamda ular bilan muomala qilishdagi xavfsizlik qoidalari o‘zlashtirmagan shaxsiy tarkibga otish mashg‘ulotida ishtirok etishga va unga xizmat ko‘rsatishga **ruxsat berilmaydi**.

Har bir xodim tomonidan otish mashg‘ulotidagi xavfsizlik qoidalari qat’iy rioya qilinishi talab etiladi.

Ichki ishlar organlarining barcha darajadagi rahbarlari qo‘l ostidagi shaxsiy tarkibi tomonidan xavfsizlik qoidalari qat’iy rioya etilishiga shaxsan javobgar hisoblanadi.

Otish maydonining chegaralari tabiiy joyda “**To‘xta, otyapti!**”, “**O‘tish taqiqlanadi!**” belgilari bilan belgilanib, ular so‘qmoq va yo‘llarning kesishish joylarida hamda bir-biridan ajralib turadigan qilib o‘rnatiladi. Zaruratga ko‘ra, otish maydonining chegaralarida transheya qazilishi mumkin. Barcha yo‘llar va piyoda so‘qmoqlar shlakbaum yoki zich to‘sqliar bilan yopiladi. Bundan tashqari, otish maydoniga yaqin joylashgan aholi yashash joylarida otish maydoni boshlig‘ining ruxsatisiz otish maydoni hududiga kirishni taqiqlovchi e’lonlar osiladi.

Bo‘ysunuvida otish maydoni bo‘lgan rahbar (boshliq)lar mahalliy hokimiyat organlari orqali o‘rnatilgan ogohlantiruvchi belgi va signallarning nimani anglatishi, otish mashg‘uloti mobaynida hududga kirgan, portlamay qolgan o‘q-dorilar va imitasiya jihozlariga tekkan shaxslar o‘zlarini qanday xavfga qo‘yayotganligi bo‘yicha aholiga muntazam ravishda tushuntirish ishlari olib borishi lozim.

Otish mashg‘ulotidan oldin nishonlar maydoni ko‘zdan kechirilishi hamda odam, hayvon va transport vositalari uning hududidan chiqarib yuborilishi kerak.

Otish mashg‘uloti ob’ektida faqat belgilangan yo‘llar bo‘ylab va poligon boshlig‘i tomonidan ko‘rsatilgan hududlarda harakatlanishga ruxsat etiladi.

Otish mashg‘uloti rahbari o‘rtasida radioaloqa mavjud bo‘lmagan taqdirda otishni boshlash va olib borish taqiqlanadi, shuningdek, nishonlar maydoni va o‘q kuchini so‘ndiruvchi makon chegarasida yong‘in sodir bo‘lganda otish to‘xtatiladi. Otishni to‘xtatish signallari va “**To‘xta!**”, “**Otish to‘xtatilsin!**” komandalariiga binoan otuvchilar otishni to‘xtatadi, qurol o‘qsizlantiriladi va saqlagichga qo‘yiladi.

Quyidagi holatlarda otuvchilar tomonidan mustaqil ravishda yoki rahbar komandasiga binoan otish zudlik bilan to‘xtatiladi:

nishonlar maydonida odam, mashina va hayvonlarning, otish mashg‘uloti hududi ustidan pastlab uchayotgan samolyot va vertolyotlarning paydo bo‘lishi;

granatalar xavfsiz zona chegarasidan tashqariga yoki odamlar tomonidan band qilingan joylarga tushsa va blindaj bilan aloqa uzilib qolsa;

qo‘mondonlik punkti yoki blindajda oq rangli bayroq ko‘tarilsa (oq rangli fonar yoqilsa), shuningdek, blindajdan otishni to‘xtatish to‘g‘risidagi boshqa qabul qilingan signal (portlatgich paket, tutunli shashka, raketa va shu kabilar) berilsa;

qurshov postidan otish mashg‘ulotini davom ettirishning xavfli ekanligi to‘g‘risidagi bildiruv yoki signal berilsa;

nishonlar maydonida yong‘in chiqsa.

Otishni to‘xtatish uchun “**Otish (mashq) tamom!**” signali beriladi va qizil rangli bayroq o‘rniga oq rangli bayroq o‘rnatiladi (oq rangli fonar yoqiladi) hamda “**To‘xta, otish to‘xtatilsin!**” komandasasi beriladi. “**Otish (mashq) tamom!**” signalini barcha otuvchilar darhol qabul qilib olishi hamda o‘z joyida qolib, o‘z komandirlarining signal va komandalarini kutmagan holda otishni to‘xtatishlari talab etiladi.

“**Otish (mashq) tamom!**” signalidan “**O‘t och!**” signaligacha kim bo‘lishidan qat’iy nazar o‘t ochish marrasida (otish joyida) qolishi va u erda qoldirilgan qurolga yaqinlashishi taqiqlanadi.

Quyidagilar qat’iyan taqiqlanadi:

“**O‘t och!**” signali (rahbar, boshliqning komandasasi) berilgungacha qurolni jangovar va paxtavon patronlar bilan o‘qlash;

qurol o‘qlangan yoki o‘qlanmaganidan qat’iy nazar uni odamlarga, chetga va otish maydonining front orti qismiga yo‘naltirish;

nosoz quroldan, nosoz o‘q-dorilar bilan, otish xavfli bo‘lgan yo‘nalishlarda, qo‘mondonlik (boshqaruv) punkti va blindajlarda oq rangli bayroq o‘rnatilganda otish yoki otishni davom ettirish;

o‘qlangan qurolni har qanday joyda qoldirish yoki uni boshqa shaxslarga berish, rahbar (boshliq)ning komandasiz shaxsiy qurolni o‘t ochish pozitsiyasida (otish joyida) qoldirish;

kuchli yomg‘ir yoki qor yog‘ayotgan sharoitlardagi otishda jangovar granata portlatgichining kallak qismidagi saqlagich qopqog‘ini olib tashlash;

otish joyining old tomonida butazor yoki baland o‘sgran o‘tlar bo‘lishi;

otish maydonining portlamay qolgan granatalar va boshqa portlovchi buyumlar mavjud bo‘lgan uchastkalariga kirish, mazkur uchastkalar taqiqlangan zona hisoblanadi va to‘sib qo‘yilgan, ko‘rsatkich hamda tegishli yozuvlari bor belgilar bilan belgilangan bo‘lishi lozim (masalan, “**Xavfli!**”, “**Portlamay qolgan granata – tegilmasin!**”).

Ushbu qoida bilan birga, qo‘srimcha ravishda har bir qurol turi bo‘yicha tegishli qo‘llanma va yo‘riqnomalarda bayon qilingan xavfsizlik qoidalariiga amal qilinishi talab etiladi.

9-§. PISTOLET MAGAZININI BIR QO‘LDA (BIR QO‘L YARALANGANDA) ALMASHTIRISH (AQSh tajribasi)

Amerika Qo‘shma Shtatlari harbiy sohada dunyo reytingida eng yuqori pog‘onani zabit etib turibdi. 2024 yil holatiga ko‘ra, ushbu ko‘rsatkich hali-hamon o‘zgarmagan¹. Amerika Qo‘shma Shtatlari harbiy sohaga ilg‘or texnologiyalarni keng jalb etgani bois, dunyoga namuna bo‘ladigan tajribaga egaligicha qolmoqda.



Harbiy xizmatchi jang mobaynida yoki qurolli to‘qnashuvda o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifani muvaffaqiyatli bajarishda mavjud imkoniyatlarning barchasidan foydalanishi lozim. Jangovar vaziyat harbiy xizmatchining bir qo‘li jarohatlanishiga sabab bo‘lganda ham, harbiy xizmatchi ikkinchi qo‘li orqali o‘qotar qurol bilan muomala qila olish, o‘ziga yuklatilgan jangovar vazifani muvaffaqiyatli yakunlash imkoniyatini saqlab qoladi. 9-paragrafda esa muallif tomonidan mutolaa qiluvchining e’tiboriga harbiy xizmatchining bir qo‘lda o‘qotar qurol bilan muomala qila bilan bog‘liq AQSh tajribasini taqdim qilish maqsad qilingan:

¹<https://www.globalfirepower.com>

Pistolet magazinini tizzalar orasida almashtirish (60-rasm).

Jangovar vaziyatlarda xodimning bir qo‘li jarohatlanganda, pistolet magazinini almashtirish uchun tizzalab erga o‘tirib olishi kerak. So‘ngra, tizzalar orasidagi intervalni pistolet sig‘adigan masofa qoldirgan holda qisqartirishi hamda pistoletning tag qismini yuqoriga qaratgan holda magazin tutqichini bosib, magazinni ajratib olishi uchun qulay holatga keltirishi lozim. Bo‘sh magazin ajratib olinganidan so‘ng, koburadan yoki magazin uchun sumkadan patron to‘ldirilgan magazin olinib, dastka asosiga oxirigacha kiritilib, pistoletni qo‘lga olib, zatvor tutqichini pastga bosishi lozim. Ushbu amal bajarilganidan so‘ng, harbiy xizmatchi jangovar operasiyani davom ettirishi mumkin bo‘ladi.



Pistolet magazinini oyoq bo‘g‘imi orasida almashtirish (61-rasm).

Mazkur amalni bajarish uchun harbiy xizmatchi tizzalagan holda etga o‘tirishi, bunda, chap (o‘ng) oyog‘ining tag qismni erda bo‘lishi, o‘ng (chap) oyog‘ining tizza qismi erga tiralishi, oyoq uchi orqaga tortilgan holda erga tiralishi kerak. Oyoq bo‘g‘imida interval pistolet sig‘adigan masofa saqlangan holda ta’milanishi kerak. Zatvorning eng orqa chekkasi oyoq bo‘g‘imining ichida joylashishi, pistolet stvoli va magazinining oyoq bo‘g‘imidan tashqarida joylashishini ta’minlaydi. Ushbu holatda, pistolet bo‘g‘imlar orasida o‘ta mustahkam joylashadi hamda harbiy xizmatchi tomonidan magazin, tuqichini

bosish orqali ajratib olinadi hamda patron to‘ldirilgan magazin bilan almashtiriladi. So‘ngra, harbiy xizmatchi tomonidan zatvor tutqichi pastga bosilib, qayta o‘qlangan holda jangovar vazifaga kirishiladi.



*Pistolet magazinni tik turib tizzalar orasida almashtirish
(62-rasm).*

Ushbu amalni bajarish uchun harbiy xizmatchidan tizzalarini hiyl oldinga bukish kifoya. Zatvorning eng orqa chekkasi tizzalar orasida, pistoletning tag tomoni yuqoriga qaratilgan holda bo‘lishi kerak. Harbiy xizmatchi magazin tutqichini orqa tomonga surgan holda bo‘sh magazinni ajratishi hamda koburadagi yoki magazin uchun sumkadagi patron to‘ldirilgan o‘qdonni dastak asosiga oxirigacha kiritish orqali erishishi mumkin. Zatvor tutqichini pastga bosish orqali jangovar vazifa bajarishga kirishish mumkin.



Pistoletni bir qo‘lda g‘ilofdan chiqarib o‘qlash (62-rasm).

Pistoletni bir qo‘lda jangovar holatda keltirishda, avval chap (o‘ng) qo‘l bilan koburadan chiqariladi, saqlagichdan echiladi, beldagi kamar (remen), kobura, poyabzalning orqa qismi yordamida zatvor eng orqa chekkaga tortib-qo‘yib yuboriladi hamda nishon yoki dushman mo‘ljalga olinadi.

Eslatma: Ushbu amallarni bajarishda pistolet bilan muomala qilishdagi xavfsizlik choralariga, ayniqsa, quroq stvoli odamga yo‘naltirilmaganligiga qat’iy rioya qilish zarur. Qurolda nosozliklar mavjud bo‘lsa, harbiy xizmatchining ixtiyoriga bo‘ysunmagan holda beixtiyor o‘q otilishi holati kuzatilishi ham mumkin. Bu esa o‘z navbatida, og‘ir va qaytarib bo‘lmaydigan oqibatlarni kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

XULOSA

Tabiiyki, ichki ishlar organlari o‘z xizmat faoliyatini amalga oshirishda jamoat xavfsizligini ta’minlash, jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash kabi vazifalarni bajarish uchun “Ichki ishlar organlar to‘g‘risida”gi Qonunda ayrim huquqlar belgilab berilgan. Ushbu huquqlar o‘ziga xos vazifalarni bajarish bilan bir qatorda, o‘qotar qurolni qo‘llash huquqi ichki ishlar organi xodimi tomonidan qo‘llaniladigan majburlov chorasing eng qattiq turi hisoblanadi. O‘ta muhim xarakterga ega bo‘lgan ushbu huquqni ta’minlash uchun ichki ishlar organi xodimiga tabel quroli biriktiriladi. O‘zbekiston Respubikasi ichki ishlar organlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan o‘qotar qurollar ro‘yxati asosida quollantiriladi. Makarov pistoleti esa, shubhasiz, ichki ishlar organlarining eng asosiy tabel quroli hisoblanadi.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada mutolaa qiluvchi uchun Makarov pistoletining tarixi, uning qo‘llanilishi va jangovar xususiyatlari, noto‘liq va to‘liq qismlarga ajratish va qayta yig‘ish, asosiy qism va mexanizmlari hamda ularning vazifalari, amaliy o‘q otish mashqlarini bajarish bilan bog‘liq muhim ilmlar keltirilgan. Ushbu ilmlarning keltirilishi mutolaa qiluvchining ongida Makarov pistoletiga tegishli bo‘lgan ilmlarni hamda tasavvurlarning yaxlit shakllanishiga imkoniyatini yaratadi. Makarov pistoleti bilan bog‘liq nazariy ilm va amaliy ko‘nikmalarning egallanishi ichki ishlar organi xodimi tomonidan xizmat faoliyatida va nostandard vaziyatlarda qurol qo‘llashda professionalizm sifatlarini hamda psixik barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni. – T., 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи PF-4947 “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – T., 2017.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi PF-5005 “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – T., 2017.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustdagи 3216-sон «Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2017 yil 15 martdagи “Ichki ishlar organlari xodimlarini jismniy kuch ishlatis, maxsus vositalar va o‘qotar qurollari bilan foydalanish to‘g‘risida”gi 55-sonli buyrug‘i.
7. O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2022 yil 22 sentyabrgи «O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat, jangovar, jismoniy va axloqiy psixologik tayyorgarligini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 383-sonli buyrug‘i.
8. Nastavlenie po strelkovomu delu 9-mm Pistolet Makarova (PM). Moskva.-1961.
9. IIV MOI Jangovar tayyorgarlik darslik (1-qism). T.-2024.

10. Matchanov A.A., Rustamov M.T., Djurabaev R.T. “Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari uchun pistoletdan o‘q otishni o‘rganish yuzasidan amaliy yordam ko‘rsatish” qo‘llanma. – T.: Akademiya. – 2007.

Internet saytlari

1. <https://dzen.ru/a/XFYnMQmXhwStEtG9> - Pistolet Makarova i samie neobichnie sposobi ego modernizasii.
2. <https://pentagonus.ru/publ> - Osobennosti ognevoy podgotovki po vedeniyu strelbi iz pistoleta v vorujennix silax SSHA (2015).

MUNDARIJA

SO'Z BOSHI.....	3
------------------------	----------

I-BOB

MAKAROV PISTOLETINING TARIXI HAMDA NOODATIY QURILMALAR

1-§. Makarov pistoletining tarixi.....	5
2-§. Makarov pistoletining noodatiy qurilmalari.....	5

II-BOB

MAKAROV PISTOLETINING TUZILISHI, JANGOVAR XUSUSIYATLARI

1-§. Makarov pistoleti (PM)	9
2-§. Makarov pistoletining jangovar xususiyatlari.....	10
3-§. Makarov pistoleti foydalanimagan patronlarning jangovar xususiyatlari ...	10
4-§. Makarov pistoletning asosiy qism va mexanizmlari.....	12

III-BOB

MAKAROV PISTOLETINI NOTO'LIQ VA TO'LIQ QISMLARGA AJRATISH VA QAYTA YIG'ISH

1-§. Makarov pistoletini qismlarga ajratish va qayta yig'ish.....	13
2-§ Makarov pistoletni to'liq qismlarga ajratish	18
3-§. Makarov pistoletini tozalash va moylash	28

IV-BOB

MAKAROV PISTOLETINING QISM, MEXANIZMLARI VA ANJOMLARINING TUZILISHI HAMDA VAZIFALARI

1-§. Pistolet qism va mexanizmlarining tuzilishi va vazifalari.....	33
2-§. Pistolet anjomlarining vazifasi va tuzilishi	46
3-§. Pistoletga xizmat ko'rsatish	48
4-§. Pistoletdan o'q otish vaqtidagi extimoliy tutilishlar va ularni bartaraf etish	52
5-§. Pistoletni ko'zdan kechirish.....	54
6-§. Pistoletni saqlash tartibi	54

V-BOB
MAKAROV PISTOLETIDAN O‘Q OTISH MASHQLARINI
BAJARISH

1-§. Pistoletdan o‘q otish usullari.....	56
2-§. Tik turgan holda otish	57
3-§. Tizzalab o‘q otish	60
4-§. Yotgan holda o‘q otish.....	61
5-§. Pana joydan tayangan holda o‘q otish	65
6-§. Pistoletdan o‘q otish qoidalari	67
7-§. Pistoletdan otish mashqlari	70
8-§. Otish mashg‘ulotlarini o‘tkazishdagi xavfsizlik qoidalari	60
9-§. Pistolet magazinini bir qo‘lda (<i>bir qo‘l yaralanganda</i>) almashtirish (<i>AQSH tajribasi</i>).	74
XULOSA	77
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	78

TASIMOV NURMAXAN ZOIRJANOVICH

MAKAROV PISTOLETI

O‘quv qo‘llanma

Muharrir: T.P. Abdullayev

Bosishga ruxsat etildi 23.10.2024y. Nashriyot hisob tabag‘i 6.

Adadi _____ nusxa. Buyurtma №

O‘zbekiston Respublikasi IIV MOI
100213, Toshkent shahri, H.Boyqaro ko‘chasi, 27A uy.